

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
A K A D E M I Y A

M. Z. ZIYODULLAYEV

AHOLI TURAR JOYLARIDA JAMOAT  
TARTIBINI SAQLASH TIZIMLARI:  
TARIXI, BUGUNI VA XORIJ TAJRIBASI

*O‘QUV QO‘LLANMA*

Toshkent 2015

**T a q r i z c h i l a r:**

Toshkent shahar IIBB boshlig‘ining o‘rinbosari v.b.  
podpolkovnik **O‘. O‘. Raxmatov**;  
yuridik fanlar nomzodi **J. S. Muxtorov**

**Ziyodullayev M. Z.**

Z –59 **Aholi turar joylarida jamoat tartibini saqlash tizimlari: tarixi, buguni va xorij tajribasi:** O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 59 b.

Ushbu qo‘llanmada O‘zbekiston hududidagi aholi turar joylarida jamoat tartibini saqlash tizimlarining tarixi, bugungi kunda aholi turar joylarida jamoat tartibini saqlash tizimining markaziy subyekti bo‘lgan militsiya tayanch punktlarining huquqiy holati, ma‘muriy hududlarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha xorij tajribasi masalalari yoritilgan.

Yuridik oliy o‘quv yurtlarining tinglovchi va talabalari, katta ilmiy xodim-izlanuvchilar, ichki ishlar organlari amaliyot xodimlari hamda hozirgi zamon huquqshunoslik fani bilan qiziquvchi kitobxonlarga mo‘ljallangan.

**BBK 67.99(5U)8ya73**

## KIRISH

Jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Istiqlol yillarida mamlakatimizda jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash vazifasini samarali amalga oshirishni tashkil etish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi IIVda asosiy vazifasi bevosita jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlashdan iborat bo'lgan Patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash bosh boshqarmasi, Yo'l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi, Yong'in xavfsizligi bosh boshqarmasi, Qo'riqlash birlashmasi hamda uning tizimiga kiruvchi quyi tarkibiy tuzilmalari shakllandi hamda ularning faoliyati takomillashtirib borildi.

Shuningdek, ichki ishlar organlari tizimidagi bir qator sohaviy xizmatlarning jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlashdagi ishtiroki aniq belgilanib, ularning bu boradagi asosiy vazifalari va o'zaro hamkorligi mustahkamlandi.

Ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan islohotlar jarayonida bir qator qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilinib, jamiyat hayotiga tatbiq etildi.

Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-aprelda qabul qilgan «Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlash Konsepsiyasi to'g'risida»gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarining faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2001-yil 27-mart hamda «O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2004-yil 19-iyul farmonlari, ularning ijrosi yuzasidan Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 31-mayda qabul qilgan «O'zbekiston Respublikasida patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash faoliyatini takomillashtirish choralari to'g'risida»gi, 2001-yil 18-mayda qabul qilgan «Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash choralari to'g'risida»gi, 2001-yil 6-iyunda qabul qilgan «Jinoyatchilikka qarshi kurashda Ichki ishlar vazirligi profilaktika xizmatining rolini kuchaytirish choralari to'g'risida»gi, 2001-yil 25-iyunda qabul qilgan «O'zbekiston Respublikasida yong'in xavfsizligi tizimini takomillashtirish tadbirlari to'g'risida»gi hamda 2004-yil 23-sentabrda qabul qilgan «O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasida ichki ishlar organlari mutaxassislarini tayyorlashni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari bu boradagi islohotlarning ustuvor yo'nalishlari va asosiy vazifalarni belgilab berdi.

O‘zbekiston Respublikasining «Yong‘in xavfsizligi to‘g‘risida»gi 2009-yil 30-sentabr, «Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida»gi 2013-yil 10-aprel, «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida»gi 2013-yil 22-aprel, «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida»gi 2014-yil 5-may, «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi 2014-yil 14-may, «Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida»gi 2014-yil 25-sentabr va boshqa bir qator qonunlari qabul qilinib, jamiyat hayotiga tatbiq etilishi jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash faoliyatini qonun darajasida tartibga solishga xizmat qildi.

Mazkur qonunlar ijrosini ta‘minlash, shuningdek jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta‘minlash sohasidagi ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni samarali tartibga solishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 21-iyundagi «O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari patrul-post xizmati saf bo‘linmalarining mas‘uliyati va faoliyat samaradorligini oshirish choralari to‘g‘risida»gi, 2013-yil 2-dekabrda «O‘zbekiston Respublikasi hududida ijtimoiy-siyosiy va ommaviy-madaniy tadbirlar o‘tkazilishi davrida xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi «Fuqarolar yig‘inining «Mahalla posboni» jamoatchilik tuzilmasi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi, 2014-yil 29-iyuldagi «Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari ham muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Respublikamiz aholi turar joylarida jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan kompleks tadbirlarni uzluksiz amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lgan, xalqimizning hayot tarzi, ma‘naviyati, qadriyatlari va mentalitetiga to‘liq mos keladigan butunlay yangi tizim – militsiya tayanch punktlariga asos solinishi bu boradagi islohotlarning asosiy natijalaridan biri bo‘ldi.

Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, vujudga kelgan yangi tizim o‘tgan asrlar davomida mamlakatimiz hududida aholi turar joylarida jamoat tartibini saqlash bilan shug‘ullangan va faoliyati sinovdan o‘tgan tizimlarning eng ilg‘or tajribalarini o‘zida umumlashtirgan, qolaversa, militsiya tayanch punktlarining faoliyatini zamon talablari darajasida tashkil etish uchun ma‘muriy hududlarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha ilg‘or xorij tajribasi ham inobatga olingan.

Biroq, butun dunyoda globallashtirish va jadal rivojlanish jarayoni kechayotgan murakkab bir davrda mamlakatimizda aholi turar joylarida

jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini samarali ta'minlash militsiya tayanch punktlari subyektlari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Bu esa militsiya tayanch punktlari faoliyatini zamon bilan hamnafas ravishda takomillashtirib borishni, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ishlarni izchil davom ettirish va chuqurlashtirishni taqozo etadi.

Shunday ekan, ushbu sohada nafaqat kompleks amaliy choratadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, qolaversa, bu borada chuqur ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, mavjud muammolarni o'rganish hamda ularni bartaraf qilishga doir ilmiy asoslangan xulosalar, taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

O'zbekiston hududidagi aholi turar joylarida jamoat tartibini saqlash tizimlarining tarixi, bugungi kunda aholi turar joylarida jamoat tartibini saqlash tizimining markaziy subyekti bo'lgan militsiya tayanch punktlarining huquqiy holati, ma'muriy hududlarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha xorij tajribasi yoritilgan ushbu o'quv qo'llanma ham ushbu sohada olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijasida yaratildi.

## 1-§. O‘zbekistonda aholi turar joylarida jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash tizimlarining tarixi

Jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash insoniyat taraqqiyotining barcha davrlarida dolzarb masala hisoblangan. Ushbu vazifani bajarish turli davrlarda turlicha nom, tizim va tuzilishga ega bo‘lgan tuzilmalar va mansabdor shaxslar zimmasiga yuklatilgan.

O‘zbekistonda aholi turar joylarida jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash tizimlari tarixini shartli ravishda uchga – 1) chor Rossiyasi istilosigacha bo‘lgan davr; 2) chor Rossiyasi va Sovet Ittifoqi hukmronligi davri; 3) mustaqillik davriga – bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

*Chor Rossiyasi istilosigacha* bo‘lgan ulkan davr ichida aholi turar joylarida jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlashni ko‘plab xizmatlar amalga oshirib, ular turlicha nomlangan. Jumladan, arablar istilosidan so‘ng O‘rta Osiyo tarixida yangi davr – siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotning barcha jabhalari hamda davlat boshqaruvi va sud-huquq tizimida islomiy dunyoqarash hukmron bo‘lgan davr boshlanib<sup>1</sup>, bu davrda jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash vazifasini «sho‘rta» deb ataluvchi maxsus bo‘linmalar amalga oshirgan. Ushbu idoralarning xalifa va hokimlar tomonidan tayinlangan boshliqlari «Sohibul sho‘rta» deb nomlanib, ular aholi hayoti, sog‘lig‘i va mulkining xavfsizligi uchun javobgar bo‘lganlar<sup>2</sup>.

Ijroiya hokimiyat tarkibiga kirgan sho‘rta keng vakolatlarga ega bo‘lib, davlat rahbarining qo‘lidagi mustahkam qurol sanalgan. Kechiktirib bo‘lmas kichik masalalarni hal qilishda sho‘rtaga sudlarning ayrim vazifalarini bajarishiga ham ruxsat berilgan. Arab olimi Ibn Xoldun o‘z asarlarida insonlar xavfsizligi bilan bog‘liq masalalarni sho‘rta qozilarning aralashuvisiz bevosita o‘zi hal qilganini qayd etgan<sup>3</sup>.

Davlatni boshqarishda tinchlik va osoyishtalikni, huquq-tartibotni ta‘minlash haqidagi fikr va g‘oyalarni ma‘lum bir tizimga mujassamlashtirish Turon zaminida Temuriylar davriga to‘g‘ri kelganini ko‘rishimiz mumkin. «Amir Temur tuzuklarini o‘qigan kishi xuddi bugungi zamonning katta-katta muammolariga javob topgandek bo‘ladi»<sup>4</sup>. Amir Temur

---

<sup>1</sup> Қаранг: Давлат курилиши ва бошқаруви / Муаллифлар жамоаси. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат ва жамият курилиши академияси. – Т., 2007. – Б. 61.

<sup>2</sup> Қаранг: Садагдар М. И. Основы мусульманского права. – М., 1968. – С. 38.

<sup>3</sup> Қаранг: Ўша манба. – Б. 135–136.

<sup>4</sup> Қаранг: Каримов И. А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т. 1. – Т., 1996. – Б. 198.

o‘z tuzuklarida davlatni boshqarishda huquqning tutgan o‘rni, unda huquq-tartibotni saqlash, huquqbuzarlik, adolatsizlik va axloqsizlikning oldini olishning ahamiyati haqida juda boy va hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan fikr va g‘oyalarni bildirgan hamda saltanatni boshqarishga bevosita tatbiq etgan<sup>1</sup>.

Amir Temir davrida<sup>2</sup> saltanatda huquq-tartibotni ta‘minlash bilan davlat xizmatchilari shug‘ullanganlar. Shunday lavozimlardan biri «arzbegi» deb nomlanib, ushbu lavozimda ishlagan shaxs dargohga arz-dod, shikoyat bilan kelganlar va mamlakatda sodir bo‘layotgan voqyealarga o‘z munosabatini bildiruvchilarni qabul qilib, tushgan arz, shikoyat va takliflarni oliy hukmdorga yetkazib turishga mas‘ul bo‘lgan. Bundan tashqari, dargohdagi adolat amiri turli o‘lka va shaharlarda sipoh va raiyat orasida urf-odatlariga oid janjalli ishlardan boxabar bo‘lib, oliy hukmdorga hisobot va ma‘lumot berib turgan. Mana shu ikki mansabdor shaxs tomonidan joylarda ro‘y berayotgan adolatsizlik, tartibsizlik, davlat va jamiyat manfaatiga zid ishlar haqida ro‘y-rost ma‘lumot olingach, so‘ngra maxsus vakil – aminlar joylarda voqyeani o‘rganib, tegishli choralar ko‘rishgan<sup>3</sup>.

Shuningdek, amiri xaros – podshoh saroyidagi ishonchli mansabdor, saroy qo‘riqchilarining boshlig‘i ham asosiy vazifasi – jinoyatchilarni jazolash ustidan nazoratni olib borish bilan birga, muhtasib musulmonlar tomonidan shariat qonun-qoidalarining bajarilishini<sup>4</sup>, bozor-ucharda tosh-tarozi va narx-navoni nazorat qilib turgan<sup>5</sup>.

Saltanatda huquq-tartibotni ta‘minlash borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari ta‘minlanib, sud-huquq tizimi muntazam rivojlanib borgan, hattoki karvon yo‘llarida jinoyatlar sodir etilishi sezilarli darajada kamaygan<sup>6</sup>. Buni Sohibqironning «...saltanatimning u chetidan bu chetiga biror bolakay boshida bir lagan tilla ko‘tarib o‘tadigan bo‘lsa, bir donasiga ham zarar

---

<sup>1</sup> Қаранг: *Зарипов З.С., Исмоилов И.* Криминология. – Т. 1996., – Б. 159–160.

<sup>2</sup> Қаранг: *Азамат Зиё.* Ўзбек давлатчилиги тарихи: (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). – Т., 2000. – Б. 171.

<sup>3</sup> Ўша асар, – Б. 177–178.

<sup>4</sup> Қаранг: *Ахмедов Б.* Амир Темур. – Т., 1995. – Б. 596, 613.

<sup>5</sup> Қаранг: *Давлат қурилиши ва бошқаруви / Муаллифлар жамоаси.* Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиши академияси. – Т., 2007. – Б. 78.

<sup>6</sup> Қаранг: *Туляганов А.А.* Амир Темур ва Темурийлар салтанатида давлат бошқаруви ҳамда дипломатик муносабатларнинг ривожланиши. – Т., 2006. – Б. 89, 96.

yetmaydigan tartib-intizom o‘rnatdim»<sup>1</sup>, degan so‘zlaridan ham anglash mumkin.

Markaziy Osiyoda xonliklar davrida huquq-tartibotni saqlash, jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash tarixini ma‘muriy lavozim egasi hisoblangan mirshablar faoliyati bilan bog‘lash mumkin<sup>2</sup>. Aholi turar joylarida mirshablar jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash, shariat qoidalari buzilishining oldini olish, zindonda hukm qilinganlarni saqlash va qo‘riqlash ishlari bilan shug‘ullanganlar. Ba‘zi manbalarda mirshablar yuzboshi va yasovulboshiga bo‘ysunishgani<sup>3</sup>, ayrim adabiyotlarda esa mingboshi va katta oqsoqollar ixtiyorida xizmat qilganliklari qayd etiladi<sup>4</sup>.

Odatda mirshablar kechki payt, ya‘ni bozorlar, do‘konlar, ustaxonalar va shahar darvozalari yopilishi, ish vaqti tugashi bilanoq o‘z vazifasini bajarishga kirishganlar. Shu bois ham ular «tungi hukmdorlar» (arab. *mir* – hukmdor, *shab* – tun) deb atalgan. Shuningdek, o‘zga mamlakatlar elchilarining xavfsizligini ta‘minlash ham ular zimmasida bo‘lib, elchilar ularning kuzatuv ostida yurishgan. Mirshablarga qozi tergovidan oldin mirshabxonada surishtiruv ishlari olib borish, gumon qilinuvchi va ayblanuvchilarni ushlab turish vakolati berilgan<sup>5</sup>.

Ko‘pgina holatlarda mirshablik xizmatiga jamoat tartibini saqlash jarayonida yordamchi kuch sifatida navkar (askar)lar jalb etilgan.

Chor istilosidan keyin O‘zbekiston hududida mirshablar tungi navbatchilik, tartib-intizomni ta‘minlash bilan birga, politsiya vazifasini ham bajarishgan. Ushbu davrda mirshabxonalar boshlig‘i «qo‘rboshi» deb atalgan<sup>6</sup>.

Xullas, Chor Rossiyasi istilosigacha bo‘lgan davrda jamiyatda jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlovchi kuchlar faoliyatining xususiyati bozor-o‘char va boshqa jamoat joylarida, shariat qoidalariga asoslangan holda, tartib-intizomni ta‘minlash hamda aholini joylardagi amaldorlar va badavlat shaxslarning adolatsiz qarorlari hamda noqonuniy ta‘siridan himoya qilishda o‘z aksini topgan.

*Chor Rossiyasi va Sovet Ittifoqi hukmronligi davri.* Chor Rossiyasi hukmronligi o‘rnatilishi bilan dastlab xalq sudlarining faoliyati yo‘lga

---

<sup>1</sup> Каримов И. А. Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби. Т. 5. – Т., 1997. – Б. 187.

<sup>2</sup> Қаранг: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т.5. – Т., 2003. – Б. 658.

<sup>3</sup> Мухаммад Ризо Огаҳий. Асарлар. 6-жилдлик. Ж.5. Тарихий асарлардан парчалар. – Т., 1978. – Б. 192–193.

<sup>4</sup> Қаранг: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 6-жилд. – Т., 2003. – Б. 10.

<sup>5</sup> Ўзбекистон ССР тарихи. 4 томлик. – Т. 1. Қадимий даврлардан XIX асрнинг биринчи ярмигача. – Т., 1970. – Б. 653–654.

<sup>6</sup> Қаранг: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 6-жилд. – Т., 2003. – Б. 10.



qo'yilib, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashda ularga muayyan vakolatlar berilgan<sup>1</sup> bo'lsa, keyinchalik 1892-yilgi «Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida Nizom»ga muvofiq, ushbu vakolat harbiy gubernatorlar zimmasiga yuklatilgan. Shuningdek, uyezd boshlig'i va uning yordamchisi, hudud pristavi jamoat tartibi buzilganda mahalliy va mahalliy bo'lmagan aholiga nisbatan ma'muriy jazo choralari, xususan, qamoq yoki muayyan miqdordagi jarima belgilash vakolatiga ega bo'lgan<sup>2</sup>.

Jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash tizimi tarixi ichki ishlar organlarining tarixi bilan uzviy bog'liqdir<sup>3</sup>. O'zbekiston hududida ichki ishlar organlari faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan dastlabki islohotlar 1917-yilning oxirlariga to'g'ri keladi. Mamlakatda huquq-tartibotni ta'minlovchi maxsus organga bo'lgan ehtiyojni qondirish maqsadida, shuningdek Ichki ishlar xalq komissarligining 1917-yil 28-oktabrda qabul qilgan «Ishchi militsiyasi to'g'risida»gi qaroriga asosan, ishchi-dehqon militsiyasi tuzilgan.

O'sha davrda fuqarolarning mulkini qo'riqlash va jamoat tartibini ta'minlashda deyarli barcha tumanlarda tashkil etilgan firqa drujinalari faol ishtirok etganlar. Ular omborlar, muassasalarni qo'riqlash, shaharlarda jamoat tartibini saqlash, asosiy ko'chalar va chorrahalarda harakat xavfsizligini ta'minlash bilan shug'ullanganlar. Umuman olganda, firqa drujinalari vazifalarining ko'lami ayni kundagi qo'riqlash, patrul-post va jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish hamda yo'l-patrul xizmatlarining vazifalarini o'z ichiga qamrab olgan. Biroq, qarorda qishloqlarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash, militsiyaning qishloqlardagi holati to'g'risida so'z yuritilmagan<sup>4</sup>.

Dastlabki davrlarda tuman militsiya bo'linmalarining asosiy faoliyati jamoat tartibini saqlashga yo'naltirilgan bo'lib, militsiya komissari (boshlig'i, rahbari), uning yordamchisi, tarjimon va texnik xodimdan tashkil topgan edi. Katta va kichik militsionerlar ushbu bo'linmalarning asosiy kuchlari hisoblangan<sup>5</sup>.

---

<sup>1</sup> Қаранг: Проект положения об управлении в Семиреченской и Сырдаринской областях. – Т., 1980.

<sup>2</sup> Қаранг: Положение об управлении Туркестанского края 1892 года // Свод законов Российской империи. В пяти книгах. Книга первая. Тома 1–3. Том 2. – СПб., 1912. – С. 427–446.

<sup>3</sup> Халқ хизматида 75 йил. – Т., 1992. – Б. 21.

<sup>4</sup> Қаранг: Еропкин М. И. Развитие органов милиции в советском государстве. – М. 1967. – С. 13.

<sup>5</sup> Қаранг: Джалилов Т. Верные отчизне. Из истории рабоче-крестьянской милиции в Туркестане (1917 – 1924 г.г.). – Т., 1968. – С. 35.

1918-yil 4-martda «Turkiston o'lkasi militsiya kadri» ustavi tasdiqlandi. «Militsiya kadri»ga militsiyaga yordam kerak bo'lganda chaqiriladigan zaxira sifatida qaralib, ulardan favqulodda holatlarda, ya'ni yong'in, toshqin va boshqa ofatlar paytida jamoat tartibini saqlashda foydalanilgan.

Chor Rossiyasi, jumladan uning tarkibida bo'lgan Turkistonda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash tizimining shakllanishi va rivojlanishi yuridik adabiyotlarda, xususan, professor T.A. Jalilovning ilmiy ishlarida atroflicha yoritib berilgan. Bu davrda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash vazifasi shariat normalari asosida ish olib boruvchi tuzilmalardan asta-sekin huquq normalariga asoslanib faoliyat yurituvchi idoralar zimmasiga o'tganligini ko'rsatadi<sup>1</sup>.

Militsiyaning jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash, jinoyatlarning oldini olish faoliyatini tashkil qilish masalalariga asosan urushdan keyingi yillarda e'tibor berildi. Ushbu maqsadda shahar militsiya bo'limining hududi uchastkalarga bo'linib, ularda xizmat qilish uchastka inspektorlarining zimmasiga yuklatildi. Uchastka inspektorlari jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash, jinoyatlarning oldini olish yuzasidan muntazam ish olib borib, bu borada jamoatchilik bilan aloqa qila boshladilar. Shuningdek, ular zimmasiga fuqarolarni va ularning arizalarini qabul qilish, pasport rejimiga rioya etilishini nazorat qilish, bezorilik, bolalar qarovsizligi hamda boshqa salbiy hodisalarga yo'l qo'ymaslik vazifalari yuklatildi<sup>2</sup>.

Aholi turar joylarida post va patrullik xizmati kuchaytirildi<sup>3</sup>.

O'tgan asrning 60-yillariga kelib, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash sohasiga e'tibor kuchaydi, 1962-yilda O'zbekiston SSR Jamoat tartibini saqlash vazirligi qayta tashkil etildi.

Biroq, mamlakatda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash borasida yuqori organlarda harchand islohotlar amalga oshirilmasin, ma'muriy hududlarda ushbu sohadagi faoliyatni tashkil qiluvchi alohida markaz yo'q edi. Aholi turar joylarida jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashning ahvoli talab darajasida emas edi. Shu sababli, ushbu sohadagi ehtiyojni qondirish maqsadida, yashash joylarida huquqbuzarliklarning oldini olish

---

<sup>1</sup> Қаранг: *Джалилов Т.* Страницы истории милиции Хорезма и Бухары. – Т., 1970. – С. 10.; *Джалилов Т.* Верные отчизне. Из истории рабоче-крестьянской милиции в Туркестане (1917 – 1924 г.г.). – Т., 1968. – С. 35.; *Еропкин М. И.* Развитие органов милиции в советском государстве. – М., 1967. – С. 13.

<sup>2</sup> Қаранг: *Халқ хизматида 75 йил.* – Т., 1992. – Б. 64–65.

<sup>3</sup> Қаранг: *Жалилов Т., Ҳошимов Р.* Совет Ўзбекистони милицияси. – Т., 1983. – Б. 27.

va jamoat tartibini saqlash bo'yicha ichki ishlar organlarining jamoatchilik bilan hamkorligini ta'minlashning nisbatan maqsadga yo'naltirilgan yangi shakli – huquq-tartibotni saqlash tayanch punktlari faoliyatiga asos solindi<sup>1</sup>. Ushbu punktlar dastlab 1973-yilda Leningrad shahrida uy-joydan foydalanish mahkamalari negizida tashkil etildi.

1973-yilning iyul oyida sobiq Ittifoq IIV Hay'ati qarori bilan Ittifoq miqyosida huquq-tartibotni saqlash tayanch punktlarining faoliyatini yo'lga qo'yishga kirishildi, 1977-yilga kelib ularning soni 18000 taga yetdi<sup>2</sup>.

Huquq-tartibotni saqlash tayanch punktlari shahar joylarida – xalq deputatlari mahalliy Kengashi ijroqo'mlarining, qishloqlarda esa shirkat xo'jaliklari va davlat xo'jaliklari markaziy ovullarining qaroriga muvofiq tashkil etilgan. Huquq-tartibot tayanch punktlarining hududini belgilashda ularning chegarasi shaharlarda uy-joydan foydalanish mahkamalarining chegarasiga teng qilib olingan bo'lsa, qishloqlarda qishloq kengashi, shirkat va davlat xo'jaliklari hududiga mutanosib belgilangan. Bundan tashqari, shartli hukm qilinib, majburiy mehnatga jalb qilinganlar va jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinib, xalq xo'jaligi qurilishlarida mehnatga yo'llanganlar joylashtirilgan joylarda ham huquq-tartibot tayanch punktlari tashkil etilgan.

Tayanch punktlari tashkil topgan dastlabki davrlarda joylarda – «jamoatchilik va militsiya tayanch punktlari», «jamoat tartibini saqlash tayanch punktlari», «militsiya tayanch punktlari» nomlari bilan atalgan. O'zbekistonda ushbu tuzilmalar «jamoatchilik va militsiya tayanch punktlari» deb yuritildi<sup>3</sup>. 1974-yilda rus olimi YE.A. Smirnov ularni yagona nomda – «Huquq-tartibotni saqlash tayanch punktlari» deb nomlanishi ular faoliyatini to'liq qamrashini va mos kelishini asoslab berdi<sup>4</sup>. Natijada mamlakatda «huquq-tartibotni saqlash tayanch punktlari» atamasidan foydalanana boshlandi.

Yuridik adabiyotlarda huquq-tartibotni saqlash tayanch punktlarini ichki ishlar organlari vakillarining boshqa subyektlar bilan hamkorlik

---

<sup>1</sup> Қаранг: Взаимодействие органов внутренних дел и общественных организаций в профилактике правонарушений // Научные труды. – Омск, 1978. – С. 12–13.

<sup>2</sup> Қаранг: *Петров А. И., Полищук А. Д.* Опорные пункты охраны правопорядка. – Киев, 1976. – С. 6.

<sup>3</sup> Қаранг: Миренский Б. А. Совершенствование деятельности опорных пунктов охраны правопорядка // Взаимодействие органов внутренних дел и общественных организаций в профилактике правонарушений. – Омск, 1978. – С. 65.

<sup>4</sup> Қаранг: *Петров А. И., Полищук А. Д.* Опорные пункты охраны правопорядка. – Киев, 1976. – С. 10.

qilishi uchun maxsus jihozlangan xonalar<sup>1</sup>, jamoatchilik va militsiyaning faoliyatini muvofiqlashtiruvchi markazlar<sup>2</sup> deb ta'riflashgan. Ularning faoliyatini uchastka inspektorlari, ko'ngilli xalq drujinachilari va keng jamoatchilikdan iborat kengashlar boshqargan<sup>3</sup>. Mazkur kengashlar esa partiya organlari ko'rsatmalari asosida ish yuritganlar<sup>4</sup>.

Ushbu punktlar faoliyatini tashkil etishda ko'ngilli xalq drujinachilariga alohida e'tibor berilgan. Ko'ngilli xalq drujinachilari – jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash va huquqbuzarliklarning oldini olish uchun tuzilgan maxsus jamoat tashkilotlari bo'lib, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar mehnat jamoalari, shuningdek fuqarolarning turar joylari bo'yicha tashkil qilingan<sup>5</sup>. Ko'ngilli xalq drujinachilari ilk bor 1958-yilda Leningrad (hozirgi Sankt Peterburg) shahrida Kirov zavodi xizmatchilari hisobidan tuzildi.

1958-yil 2-iyulda «Mamlakatda jamoat tartibini saqlashda xizmatchilarning ishtiroki to'g'risida»gi qonunning qabul qilinishi bilan ko'ngilli xalq drujinachilari faoliyati butun mamlakat hududida yo'lga qo'yildi<sup>6</sup>. Ularning faoliyatiga operativ rahbarlikni ko'ngilli xalq drujinachilari shtabi amalga oshirar edi<sup>7</sup>. O'zbekistonda ham ko'ngilli xalq drujinachilari, o'rtoqlik sudlari va boshqa jamoatchilik tuzilmalari faoliyat olib borgan<sup>8</sup>.

---

<sup>1</sup> Ўша жойда.

<sup>2</sup> Қаранг: *Флягин А. П., Кичатов Д. Ф.* Взаимодействие органов внутренних дел с общественностью в профилактике правонарушений. – Киев, 1977. – С. 65.

<sup>3</sup> Қаранг: *Катрюгин С. И.* Некоторые вопросы правового положения опорных пунктов охраны правопорядка // Взаимодействие органов внутренних дел и общественных организаций в профилактике правонарушений. 1978. – С. 35.; *Веременко И. И., Воробьев В. Ф.* В помощь добровольным народным дружинам: Сборник нормативных актов. – М., 1985. – С. 13.

<sup>4</sup> *Ракитин Н. И.* Опыт партийного руководства опорными пунктами охраны правопорядка, *Мотченко А. М.* Руководство головной партийной организации деятельностью опорного пункта // Взаимодействие органов внутренних дел и общественных организаций в профилактике правонарушений. 1978. – С. 18–22, 33–38.

<sup>5</sup> Қаранг: *Веременко И. И., Воробьев В. Ф.* В помощь добровольным народным дружинам / Сборник нормативных актов. – М., 1985. – С. 13.

<sup>6</sup> Қаранг: Организация охраны общественного порядка / Под. ред. Л. Л. Попова. – М., 1984. – С. 67.

<sup>7</sup> Қаранг: *Соколов И. В., Стрельников С. С.* Добровольные народные дружины по охране общественного порядка. – М., 1976. – С. 23.

<sup>8</sup> Қаранг: *Убайдуллаев Г.* Организация и деятельность добровольных народных дружин в Узбекистане. – Т., 1966.

1985-yilda qayta qurish natijasida ishlab chiqarish va taqsimot sohasida boshlangan tanazzul oqibatida jinoyatchilik ko‘rinishlarida salbiy o‘zgarishlar tus olib, ularda tajovuzkorlik va shafqatsizlik, huquq-tartibot kuchlariga qarshilik ko‘rsatish holatlari kuchaydi. Mazkur holat toki 1990-yilga qadar davom etdi. Respublikada jinoyatchilikka qarshi kurash va huquq-tartibotni muhofaza qilishni ta‘minlashning yangi shakl va usullarini ishlab chiqish maqsadida amalga oshirilgan ko‘plab chora-tadbirlar natijasida ichki ishlar organlarining maqbul ichki tuzilishini yaratishga hamda shu maqsadda, mamlakat ichki ishlar organlari tizimida militsiya uchastka inspektorlari, post soqchilik xizmati, davlat avtomobil inspeksiyasining faoliyatini kuchaytirishga harakat qilindi<sup>1</sup>.

Ushbu davrda asosiy vazifasi huquqqa xilof ko‘rinishlarning oldini olish, shuningdek, huquqbuzarlikka moyil faktlarni aniqlab, ularni hisobga olish, ularga nisbatan profilaktik ta‘sir o‘tkazishdan iborat ichki ishlar organlari bo‘linmalari tashkiliy jihatdan profilaktika xizmatiga birlashtirildi. Bunda uchastka inspektorlari, voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining oldini olish inspeksiyalari, shuningdek, ozodlikdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolar ijrosini ta‘minlash bo‘linmalari va muqaddam sudlanib, axloq tuzatish mehnat muassasalaridan bo‘shatilganlarning ijtimoiy moslashishini ta‘minlash bo‘linmalarining faoliyatini muvofiqlashtirib, takomillashtirib borish ko‘zda tutildi<sup>2</sup>.

Ushbu davrda aholi turar joylarida jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlovchi ixtisoslashgan tuzilmalar shakllanib, ular faoliyatida jamiyatda bezorilik, ichkilikbozlik, zaharvandlik, tekinxo‘rlik kabi illatlarning oldini olishga harakat qilingan bo‘lsa-da, mamlakatda jinoyatchilikning o‘sganligi kuzatilgan.

*Mustaqillik davrida* aholi turar joylarida jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash masalasiga katta e‘tibor qaratildi. Ma‘muriy buyruqbozlikka asoslangan tuzumdan qolgan tartib va usullar asosida faoliyat yuritayotgan ichki ishlar organlari o‘zining asosiy vazifalarini samarali bajara olmay qoldi. 1999-yil 16-fevralda Toshkent shahrida sodir etilgan terrorchilik harakatlari buni to‘liq tasdiqladi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash faoliyatini uchastka punktlari bajarishi belgilangan bo‘lsa-da, aslida ular uchastka inspektorlarining xizmat xonalaridan iborat edi, xolos.

Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi-ning «Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta‘minlash

---

<sup>1</sup> Қаранг: Халқ хизматида 75 йил. – Т., 1992. – Б. 204.

<sup>2</sup>Қаранг: Халқ хизматида 75 йил. – Т., 1992. – Б. 204.

konsepsiyasi to‘g‘risida»gi 1999-yil 12-aprel qarorida o‘sha davrda amal qilgan jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash tizimi umuman talabga javob bermasligi ko‘rsatildi. Bunday vaziyatda respublikada tinchlik va osoyishtalikni saqlash, jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash ichki ishlar organlari tizimini tubdan isloh qilishni taqozo etardi.

Ushbu qaror asosida ichki ishlar organlarining asosiy kuch va vositalari bevosita aholi yashaydigan turar joylarga yo‘naltirildi. 2001-yil Toshkent shahrida 444 ta mahallaning barchasida militsiya tayanch punktlari tashkil etilib, ularda 1200 ga yaqin profilaktika inspektorining faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Tez orada bu borada qilingan ishlar o‘z samarasini bera boshladi. Buning natijasida mahallalarda tinchlik-osoyishtalik mustahkamlandi, jinoyatlarni tezkorlik bilan ochish ko‘rsatkichi yaxshilandi. Xususan, shahar bo‘yicha 2001-yilning ilk sakkiz oyi mobaynida sodir etilgan jinoyatlar 2000-yilning shu davriga nisbatan 3,7 foizga kamaygan. Og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar, qasddan odam o‘ldirish, talonchilik, bosqinchilik, tovlamachilik, o‘g‘rilik va voyaga yetmaganlar o‘rtasidagi jinoyatlarning kamayishiga erishilgan<sup>1</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2001-yil 27-mart farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 6 iyunda qabul qilgan «O‘zbekiston Respublikasi IIVda jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘yicha profilaktika xizmatining rolini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori islohotlarning butun respublika ichki ishlar organlari tizimida o‘tkazilishini ta‘minladi<sup>2</sup>. Natijada respublikamizning eng chekka qishloq, ovul va mahallalarida militsiya tayanch punktlari tashkil etilib, ularda profilaktika inspektorlarining faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Bu esa huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyat sodir etilishiga olib keladigan sabab va holatlarni aniqlash hamda bartaraf etish borasidagi ishlarni tubdan qayta ko‘rib chiqish va kuchaytirish imkonini berdi, mamlakatimizda kriminogen vaziyatning sezilarli darajada sog‘lomlashuvini ta‘minladi<sup>3</sup>.

Militsiya tayanch punktlarining jamiyat hayotidagi rolini oshirish, ularning faoliyati va infratuzilmasini takomillashtirish, voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasida tashkiliy-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish,

---

<sup>1</sup> Қаранг: *Каримов И.А.* Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Т. 10. – Т., 2000. – Б. 101–102.

<sup>2</sup> Қаранг: *Пулатов Ю.С.* С чего начинается реформирование органов внутренних дел? // *Хуқуқ–Право–Law.* – 2004. – № 4. – Б. 80–84.

<sup>3</sup> Қаранг: *Каримов И.А.* Ўзбекистон Республикаси ички ишлар идоралари ходимларига байрам табриги // *Постда.* – 2007. – 25 окт.

yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarda ijobiy dunyoqarashni shakllantirish, ularning hayotga moslashuvini ta'minlash masalalarini tartibga solish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2002-yil 16-mayda «Militsiya tayanch punktlarining infratuzilmasini takomillashtirish to'g'risida»gi qarorini qabul qildi. Mazkur qaror bilan militsiya tayanch punktlari infratuzilmasini takomillashtirish bo'yicha Muvofiqlashtirish komissiyasi tuzildi, keyinchalik ular o'rnida diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchi lavozimi joriy etilib, pedagog-tarbiyachilar faoliyati yo'lga qo'yildi. Shuningdek, militsiya tayanch punktlari atrofida sport maydonchalari, turli fakultativ to'garaklar, kichik biznes shoxobchalari tashkil etilishi belgilab berildi.

Jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olishda jamoatchilik ishtirokini keng yo'lga qo'yish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 19-apreldagi «Jazoni o'tash joylaridan ozod qilingan shaxslarga ijtimoiy-maishiy jihatdan va ishga joylashishda yordam ko'rsatish bo'yicha Qoraqalpoqiston Respublikasi Vazirlar Kengashi va hokimliklar huzuridagi maxsus komissiyalar, «Mahalla posboni» jamoatchilik tuzilmalari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish idoralari huzuridagi yarashtirish komissiyalari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida»gi qarori<sup>1</sup> bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huzurida «Yarashtirish komissiyasi», «Mahalla posboni» jamoatchilik tuzilmalarining, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti-ning 2004-yil 25-maydagi «O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoni<sup>2</sup> bilan diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchilar, 2006-yil 10-oktabrdagi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatini qo'llab-quvvatlash va uning faoliyat samaradorligini yanada oshirish to'g'risida»gi qarori bilan yoshlar komissiyalarining faoliyati tashkil etildi va militsiya tayanch punktlari negizida ularning ichki ishlar organlari bilan hamkorligi yo'lga qo'yildi.

O'tgan yillar davomida respublikamizda faoliyat olib borayotgan militsiya tayanch punktlarining jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurash hamda fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish sohasida yuqori natijalarga erishib, boshqalarga o'rnak bo'layotganlarini

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси ҳукумати қарорлари тўплами. 1999. – №4. – 20-м.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2004. – № 21. – 251-м.

aniqlash hamda ularning subyektlarini rag‘batlantirib borish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2002-yil 25-fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarida «Namunali militsiya tayanch punktlari» ko‘rik tanlovining Nizomini tasdiqlash to‘g‘risida»gi buyrug‘i bilan uch bosqichli namunali militsiya tayanch punktlari ko‘rik tanlovi o‘tkazilishi yo‘lga qo‘yildi.

Islohotlar natijasida faoliyati yo‘lga qo‘yilgan militsiya tayanch punktlari ichki ishlar organlarining eng quyi bo‘g‘ini sifatida quyidagi afzalliklari bilan ilgari faoliyat ko‘rsatgan huquq-tartibotni saqlash tayanch punktlari, uchastka punktlaridan tubdan farq qiladi:

– fuqarolarning xavfsizligini ta‘minlash, jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida keng jamoatchilik bilan o‘zaro hamkorlikda kecha-yu kunduz uzluksiz faoliyat ko‘rsatishi;

– bitta hududga xizmat ko‘rsatuvchi ichki ishlar organlari turli tarmoq xizmatlarining bevosita xizmat hududida o‘zaro hamkorlikda ish olib borish uchun sharoit yaratishi;

– faoliyatning asosiy yo‘nalishlaridan biri aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, voyaga yetmaganlar va yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishni tashkil etishga qaratilganligi;

– yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan har qanday g‘ayriijtimoiy xatti-harakatni jamoatchilik ko‘magida tezkorlik bilan oldini olish, shuningdek sodir bo‘lgan jinoyatlarning «issiq izi»dan ochish, tezkor-tergov harakatlari o‘z vaqtida samarali olib borish uchun barcha imkoniyatga egaligi va boshqalar<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> *Зиёдуллаев М.З.* Ўзбекистонда аҳоли турар жойларида жамоат тартиби ва хавфсизлигини таъминлаш тизимларининг шаклланиши ва ривожланиш тарихи // ТДЮИ ахборотномаси. – Т., 2009. – № 3. – Б. 114.



## 2-§. Militsiya tayanch punktlari – O‘zbekistonda aholi turar joylarida jamoat tartibini saqlash tizimining markaziy subyeksi

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ichki ishlar organlari tizimida olib borilayotgan islohotlarda fuqarolar va jamiyatni terrorchilik, qo‘p-ruvchilik xurujidan, barcha shakldagi ekstremizm, uyushgan jinoyatchilik kabi jinoyat ko‘rinishlaridan ishonchli himoya qilishni ta‘minlaydigan tizimni shakllantirish, ichki ishlar organlarini shaxs huquqlari va erkinliklarini, jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini himoya qilishning ishonchli garoviga aylantirish asosiy maqsad qilib quyildi<sup>1</sup>.

Amalga oshirilgan islohotlar natijasida aholi turar-joylarida jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta‘minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan kompleks tadbirlarni uzluksiz amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lgan, xalqimiz hayot tarzi, ma‘naviyati, qadriyatlari va mentalitetiga to‘liq mos keladigan butunlay yangi tizimni shakllantirishga asos solindi. Bu yangi tizim – ichki ishlar organlarining eng quyi bo‘g‘ini bo‘lgan militsiya tayanch punktlaridir<sup>2</sup>.

Hozirgi kunda respublikamizda jinoyatchilik ustidan ijtimoiy-huquqiy nazorat shartli ravishda uch yo‘nalishga – 1) jinoyatlar sodir etilishining oldini olishga; 2) sodir etilgan jinoyatlar uchun jazoning muqarrarligini ta‘minlashga; 3) sud tomonidan belgilangan jazoning ijrosini ta‘minlashga qaratilgan faoliyatlarni amalga oshirish bilan bog‘liq kompleks tadbirlarga – ajratiladi<sup>3</sup>. Militsiya tayanch punktlari esa ushbu yo‘nalishlarning barchasini ta‘minlashda o‘ziga xos o‘ringa ega.

*Militsiya tayanch punkti* – shahar, tuman ichki ishlar boshqarma (bo‘lim)larining belgilangan ma‘muriy hududlarda jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta‘minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish borasida ichki ishlar organlari tarmoq xizmatlarining hamda ular bilan

---

<sup>1</sup> Қаранг: Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. Т.7. – Т., 1999. – Б.403–404.

<sup>2</sup>Соатов М.З. Милиция таянч пунктларининг моҳияти ва улар фаолиятини такомиллаштириш // Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашнинг назарий-амалий муаммолари: Илмий мақолалар тўплами. – Т., 2006. – Б. 163.

<sup>3</sup> Қаранг: Исмаилов И. Уюшган жиноий тузилмалар фаолиятининг олдини олишни назарий ва ташкилий-ҳуқуқий таъминлаш: Юрид. фан. д-ри. ... дис. – Т., 2006. – Б. 198.

davlat va jamoat tashkilotlarining o‘zaro hamkorligini ta’minlash maqsadida tashkil etilgan, uzluksiz faoliyat ko‘rsatuvchi asosiy quyi bo‘g‘ini.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, militsiya tayanch punktlari:

*birinchidan*, shahar va qishloq joylarida huquqbuzarliklarning oldini olish va jamoat tartibini saqlashni ta’minlovchi asosiy quyi bo‘g‘in ekani;

*ikkinchidan*, ularning ishiga shaharda – profilaktika xizmati, qishloq joylarida profilaktika katta inspektorlari rahbarlik qilishi;

*uchinchidan*, profilaktika inspektorlari o‘z ishini militsiya tayanch punktlarida voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish xizmati, jinoyat qidiruv va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash xizmati, tergov xizmati, patrul-post xizmati, yo‘l-patrul xizmati, yong‘in xavfsizligi xizmati va ichki ishlar organlarining boshqa xizmatlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoatchilik tuzilmalari, tashkilot, muassasa va korxonalar bilan uzviy hamkorlikda tashkil etishi;

*to‘rtinchidan*, fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishi, shuningdek yoshlar o‘rtasida tashkiliy-tarbiyaviy, ommaviy-sport tadbirlarini o‘tkazgan holda ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishni ta’minlashga xizmat qilishi bilan ajralib turadi<sup>1</sup>.

Militsiya tayanch punktlarining kecha-yu kunduz xizmat ko‘rsatishi fuqarolarning ularga sutkaning istalgan vaqtida o‘z dardi, tashvishi bilan murojaat qilishlariga imkon beradi.

Normativ-huquqiy hujjatlarda militsiya tayanch punktlariga jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta’minlashni tashkil etish, aholiga huquqiy masalalarda yordam ko‘rsatish, targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish, yoshlarni ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish va sport-sog‘omlashtirish ishlarini tashkillashtirish vazifalari yuklatilgan.

Militsiya tayanch punktlari zimmasidagi vazifalar uning subyektlari faoliyati orqali ta’minlanadi. Militsiya tayanch punktlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish profilaktika inspektorlarining ichki ishlar organlarining patrul-post, yo‘l harakati xavfsizligi, xorijga chiqish-kelish va fuqarolikni rasmiylashtirish, yong‘in xavfsizligi, qo‘riqlash, tergov, jinoyat qidiruv va terrorizmga qarshi kurash xizmatlari, shuningdek fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoatchilik tuzilmalari, korxonalar, tashkilot va muassasalar bilan uzviy hamkorligi asosida ta’minlanadi.

Militsiya tayanch punkti mazkur mahalla hududida xizmat qilayotgan ichki ishlar organlari xodimlari hamda mahalla faollari, jamoatchilik tuzil-

---

<sup>1</sup> Қаранг: *Мухторов Ж. С.* Милиция таянч пункти: янги тизимнинг шаклланиши ва унинг муаммолари // *Ҳуқуқ–Право–Law.* – 2005. – № 2. – Б. 2–4.

maları vakillari, mahalla posbonlari, mahalladagi diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchilar, yarashtirish komissiyalari va boshqa komissiyalar uchun asosiy tayanch punkt hisoblanadi.

Tadqiqotlarda militsiya tayanch punktlarining faoliyat yo'nalishlarini, uning bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan vazifalaridan kelib chiqib, shartli ravishda to'qqizta yo'nalishga ajratiladi<sup>1</sup>.

Bizningcha, militsiya tayanch punktlari va subyektlari zimmasidagi vazifalar ko'lamini tahlil qilgan holda, uning faoliyatini quyidagi yo'nalishlariga ajratish maqsadga muvofiqdir:

1. Odatiy va alohida sharoitlarda fuqarolarning shaxsiy va mulkiy xavfsizligi, jamiyat va davlat manfaatlarini turli tajovuzlardan himoya qilishni ta'minlash bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iborat *jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash faoliyati*.

2. Xizmat hududida sodir etilishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklar, jumladan jinoyatlarni to'xtatish, ularning oldini olish, sabab va sharoitlarini bartaraf etish, jinoyat sodir etishga, shuningdek jabrlanishga moyil bo'lgan shaxslar bilan umumiy va yakka tartibdagi profilaktikani amalga oshirish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iborat *huquqbuzarliklarning oldini olish faoliyati*.

3. Ma'muriy huquqbuzarliklarni aniqlash, qayd etish va ular bo'yicha tegishli hujjatlar to'plash; vakolatlari doirasidagi ma'muriy ishlar yuzasidan yurisdiksiyaviy qaror ishlab chiqish va qabul qilish; ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qarorlarni ijro etish bilan bog'liq o'zaro ajralmas protsessual harakatlardan iborat *ma'muriy-yurisdiksiyaviy faoliyat*.

4. Jinoyatlarni aniqlash va ochish jarayonida, qonunosti normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq, jinoyat sodir etishga moyil shaxslarni aniqlash, ular bilan yakka tartibdagi tarbiyaviy-profilaktik ishlarni amalga oshirish, operativ kuzatuv, operativ ko'zdan kechirish, shaxsni aynanlashtirish, inshoot, bino, imorat, yashash hududi va transport vositalarini tekshirish; shaxsiy qidiruv kabi usullardan bevosita foydalanish bilan bog'liq harakatlardan iborat *tezkor-qidiruv faoliyati*<sup>2</sup>.

5. Jinoyat-protsessual qonun normalariga muvofiq, hodisa sodir bo'lgan joyda tezkor-tergov guruhi yetib kelguniga qadar ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan jinoyat va boshqa holatlarning izlarini aniqlash, ularni

---

<sup>1</sup> Батафсил маълумот учун қаранг: *Исмаилов И., Бухаров Д.* Уюшган жиноий тузилмалар шаклланиши ва фаолиятининг олдини олишда ҳамкорликни ташкил этиш (муаммо ва ечимлар). – Т., 2007. – Б. 36–37.

<sup>2</sup> Қаранг: *Козаченко И. П.* Оперативно-розыскная работа участкового инспектора милиции. – Киев, 1990 – С. 7–8.

qo'riqlab turish, kechiktirib bo'lmas tergov harakatlarini o'tkazishga ko'maklashish hamda militsiya tayanch punktlari negizida tergov xizmatlarining ichki ishlar organlarining boshqa xizmatlari va jamoatchilik bilan hamkorligini tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iborat *jinoyat-prosessual faoliyat*.

6. Normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq, fuqarolarga ijtimoiy-huquqiy yordam berish, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishga yo'naltirilgan uchrashuvlarni tashkil etish, fuqarolarni ish bilan ta'minlash, ozodlikdan mahrum qilish joylaridan bo'shatilgan shaxslarni ijtimoiy hayotga qayta moslashishga ko'maklashish bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iborat *aholiga ijtimoiy-huquqiy xizmat ko'rsatish faoliyati*<sup>1</sup>.

Boshqaruv subyekti bajaradigan ko'plab vazifalar orasida uning sifat darajasini belgilovchilari mavjud bo'lganidek, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash militsiya tayanch punktlarining asosiy faoliyat yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'tkazilgan so'rovlarda ishtirok etgan mutaxassislarining 14,5 % militsiya tayanch punktlarining asosiy vazifasi jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash, deb fikr bildirishgan.

Militsiya tayanch punktlarining jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash faoliyatini batafsil o'rganish, avvalo, «jamoat tartibi» va «jamoat xavfsizligi» tushunchalarining mazmunini yoritib o'tishni talab qiladi.

Yuridik adabiyotlarda ushbu tushunchalarga berilgan ta'riflarning tahlili natijasida quyidagi xulosaga kelish mumkin: *Jamoat tartibi* – fuqarolarning shaxsiy xavfsizligi, jamoat xavfsizligi, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat tashkilotlarining normal faoliyat ko'rsatishi, fuqarolarning mehnat qilishi va dam olishi uchun to'liq sharoit yaratishga, ularning sha'ni, qadriyatini hamda umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilishga yo'naltirilgan huquqiy va ijtimoiy me'yorlar asosida jamoat joylarida yuzaga keladigan va rivojlanadigan ijtimoiy munosabatlar tizimi.

*Jamoat xavfsizligi* – shaxs, jamiyat va davlatning jinoyatchilik, boshqa huquqqa xilof harakatlar, favqulodda holatlar oqibatlarini, ijtimoiy nizolar, tabiiy ofatlar, epidemiya, epizootiya, yirik halokatlar, avariya va yong'inglardan himoyalanganligi holati<sup>2</sup>.

«Jamoat tartibi» va «jamoat xavfsizligi» tushunchalarining o'zaro farqi to'g'risida olim F.Y. Kolontoyevskiy: «Ular maqsadi, qo'riqlovchi

---

<sup>1</sup> Батафсил маълумот учун қаранг: Соатов М. З. Аҳолининг ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий маданиятини юксалтиришда милиция таянч пунктларининг роли // Ҳуқуқий онгдан – ҳуқуқий маданият сари. – Т., 2006. – Б. 92–96.

<sup>2</sup> Зиёдуллаев М.З. Милиция таянч пунктларининг жамоат тартибини сақлаш ва хавфсизлигини таъминлаш фаолиятини бошқаришни такомиллаштириш: Юрид. фан. номз. ... дис. автореф. – Т., 2008. – Б. 11.

obyektlari, bartaraf qiluvchi tajovuzlar manbai, tartibga soluvchi vazifalari, munosabatlarning tarkibi va ta'minlash usullari bilan o'zaro farqlanadi»<sup>1</sup>, deydi. Bizningcha, «jamoat tartibi» «jamoat xavfsizligi»ga qaraganda kengroq tushuncha bo'lib, o'z ichiga fuqarolar shaxsiy xavfsizligi va aynan jamoat xavfsizligini qamrab oladi. Jamoat xavfsizligini ta'minlash jamoat tartibini samarali saqlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, «jamoat tartibi» va «huquq-tartibot» tushunchalari ham o'zaro bog'liqdir. Professor O. Husanov: «Jamoat tartibi – bu yuridik va boshqa ijtimoiy qoidalar bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar bo'lib, huquq-tartibotni ham qamrab oladi. Huquq-tartibot esa faqat amaldagi huquqiy normalar asosida tashkil topgan ijtimoiy munosabatlar tizimidir», deydi<sup>2</sup>.

Jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash hamda huquqbuzarliklarning oldini olish faoliyatlari ham uzviy bog'liq. Negaki, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash orqali huquqbuzarliklarning oldi olinsa, jinoyatlarning oldini olish, sabab va sharoitlarini bartaraf qilish orqali jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashga erishiladi.

Jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash orqali ichki ishlar organlari davlat boshqaruv organlari, jamoat birlashmalari va fuqarolar bilan tashkiliy-huquqiy munosabatlarga kirishadi<sup>3</sup>. Jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash ichki ishlar organlari tizimidagi boshqaruvning tarkibiy qismi hisoblanadi<sup>4</sup>.

Jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlovchi, huquq-tartibot va yagona davlat siyosati asosida bu sohadagi munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi, jamiyat va yuridik normalarni qo'riqlovchi davlat hokimiyati organlarining majmui jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash tizimini tashkil etadi. Militsiya tayanch punktlarida faoliyat ko'rsatuvchi profilaktika inspektorlari instituti, patrul-post xizmati, yo'l-patrul xizmati, jinoyat qidiruv va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash xizmati va tergov xizmatlari ushbu tizimga kiruvchi ichki ishlar organlarining tarkibiy tuzilmalari hisoblanadi.

Jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashda militsiya tayanch punktlari subyektlarining har biri o'ziga xos o'ringa ega. *Profilaktika (katta) inspek-*

---

<sup>1</sup> Қаранг: Организация работы участковых инспекторов милиции / Под ред. Ф. Е. Колонтоевского. – М., 1992. – С. 5.

<sup>2</sup>Хусанов О. Мустақиллик ва маҳаллий ҳокимият: ҳуқуқий, ташкилий масалалар ва муаммолар. – Т., 1996. – Б. 82.

<sup>3</sup> Қаранг: Организация охраны общественного порядка / Под ред. Л. Л. Попова. – М., 1984. – С. 9.

<sup>4</sup> Ўша манба. – Б. 21.

*tori* o‘z xizmat hududida, keng jamoatchilikning yordamiga tayangan holda, ichki ishlar organlarining boshqa xizmatlari, davlat organlari bilan hamkorlikda qonunchilik va huquq-tartibotni mustahkamlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash, aholining huquqiy ongini yuksaltirish borasidagi davlat talablarini bajarish uchun mas‘ul xodimdir. Profilaktika inspektorlari ichki ishlar organlarining eng ko‘p sonli va aholiga yaqin turadigan qatlami hisoblanadi. Ularning faoliyati xizmat vazifalarining murakkabligi va serqirra funksional tabiatga egaligi bilan ajralib turadi<sup>1</sup>.

Profilaktika inspektorlari instituti O‘zbekiston Respublikasi IIV huquqbuzarliklarning oldini olish xizmatlari tarkibiga kiradi.

Profilaktika (katta) inspektorlari va militsiya tayanch punktlari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha Yo‘riqnomada belgilanganidek, profilaktika (katta) inspektorlarining ma‘muriy hududdagi xizmat faoliyatining asosiy yo‘nalishlari shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini g‘ayrihuquqiy tajovuzlardan himoya qilish, jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta‘minlash, jinoyat va ma‘muriy huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritishdan iborat.

Ko‘rinib turibdiki, aholi turar joylarida jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta‘minlash hudud profilaktika inspektori faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sanaladi.

Profilaktika (katta) inspektorlari va militsiya tayanch punktlari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha Yo‘riqnomada profilaktika inspektoriga bir qator vazifalar yuklatilgan bo‘lib, ularning bir qismi bevosita jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan bo‘lsa, bir qismining amalga oshirilishi ma‘muriy hududda jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Mazkur vazifalar quyidagilardan iborat:

– ma‘muriy hududni profilaktik ko‘zdan kechirish va kriminogen vaziyatni tahlil qilish;

– ma‘muriy hududda jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta‘minlash;

– ma‘muriy hududda huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasini tashkil etish va amalga oshirish;

– fuqarolarni qabul qilish, ularning ariza va shikoyatlarini ko‘rib chiqish va hal etish;

– ma‘muriy huquqbuzarliklarni aniqlash va ular to‘g‘risidagi ishlarni yuritish hamda hal qilish;

---

<sup>1</sup> Қаранг: Управление деятельностью служб общественной безопасности: учебник для слушателей Академии управления МВД России. – М., 2000. – С. 91.

– ma'muriy hududda pasport-viza va nazorat-litsenziyalash qoidalariga rioya etilishini ta'minlash;

– faoliyati taqiqlangan tashkilotlar, diniy-ekstremistik guruhlar va shu kabi faoliyatga aloqador bo'lgan shaxslarni aniqlash;

– ma'muriy hududda sodir etilgan jinoyatlarni aniqlash va fosh etish choralarini ko'rish;

– jinoyat sodir etib sud va tergov organlaridan yashirinib yurgan, bedarak yo'qolgan shaxslar, axloq tuzatish ishlari tariqasida jazodan bo'yin tovlab yurgan mahkumlarni qidirib topish, shaxsi noma'lum murdalarning shaxsini aniqlash;

– ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarga (muayyan huquqdan mahrum etilgan, shartli va axloq tuzatish ishlariga) hukm qilingan shaxslarga nisbatan profilaktik-nazorat ishlarini amalga oshirish;

– olib qochilgan, o'g'irlangan va boshqa shu kabi transport vositalarining qidiruvini tashkil etishda ishtirok etish;

– huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlari, davlat organlari va muassasalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat-notijorat tashkilotlari hamda fuqarolar bilan hamkorlikni ta'minlash;

– huquqbuzarlikdan jabrlangan shaxslarga yordam ko'rsatish ishlarida ishtirok etish;

– favqulodda hodisalar oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etish;

– aholi bilan hisobot uchrashuvlarini tashkil etish, o'tkazish va boshqalar.

Hududiy profilaktika inspektori normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan yuqoridagi vazifalarni ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmatlari, davlat va jamoatchilik tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

Xususan, profilaktika (katta) inspektori ma'muriy hududda xizmatga jalb etilgan sohaviy xizmat xodimlari bilan yo'riqnoma o'tkazishda hududdagi o'ta muhim va toifalangan obyektlar, aholi ko'p to'planadigan, yoshlarning madaniy hordiq chiqarish joylari, ma'muriy nazorat ostida va profilaktik hisobda turgan, huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan shaxslar istiqomat qiladigan xonadonlar to'g'risida ma'lumot beradi va ularga alohida e'tibor qaratish lozimligini tushuntiradi.

Profilaktika (katta) inspektori ma'muriy hududda jamoat tartibini saqlash maqsadida ma'muriy hududdagi tezkor-kriminogen vaziyatni tahlil qilgan holda har kuni militsiya tayanch punktiga xizmatga jalb etilgan patrul-post xizmati xodimlarining yo'nalishini belgilaydi. Ushbu yo'nalishlarga mahalla posboni jamoatchilik tuzilmasi a'zolarini jalb etadi.

Profilaktika (katta) inspektori patrul-post xizmati naryadlariga ularning patrullik yoʻnalishidagi xonadonlarda yashovchi maʼmuriy nazoratda turgan, uy qamogʻi tarzidagi ehtiyot chorasi qoʻllanilgan shaxslarning manzilini (rasmi bilan), ularga nisbatan belgilangan cheklashlar, qidiruvdagi shaxslar, ijtimoiy xavfli ruhiy kasallar haqida maʼlumotlar beradi, shuningdek ichki ishlar organlarini qiziqtiruvchi maʼlumotlarni olish haqida tushuntiradi.

Maʼmuriy hududga xizmatga jalb etilgan sohaviy xizmat xodimlari, ularga foydalanish uchun berilgan hujjat, maʼlumot va fotosuratlarni xizmat yakunida militsiya tayanch punkti profilaktika (katta) inspektoriga qaytarib topshiradilar.

Xizmat hududida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni taʼminlash maqsadida, profilaktika (katta) inspektori oʻziga birlashtirilgan xizmat hududida mansabdor shaxslar, Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi boʻlmagan shaxslar oʻrtasida pasport-viza tizimi qoidalarini targʻib qiladi, unga rioya etilishini tekshiradi hamda ushbu yoʻnalishda sodir etilgan maʼmuriy huquqbuzarliklarni aniqlaydi.

Profilaktika (katta) inspektori bu borada ichki ishlar organlarining xorijga chiqish, kelish va fuqarolikni rasmiylashtirish xizmati xodimlari bilan hamkorlikda ish olib boradi. Jumladan, profilaktika inspektori xorijga chiqish, kelish va fuqarolikni rasmiylashtirish xizmati xodimiga hududagi mehmonxona, yotoqxona, qariyalar va nogironlar uylari, sanatoriya va boshqa dam olish maskanlarida pasport-viza qoidalariga rioya etilishini tekshirish jarayonida aniqlangan ichki ishlar organlarini qiziqtiruvchi, yaʼni aniqlagan huquqbuzarliklar, ularni sodir etgan shaxslarning ismi, sharifi va manzillari toʻgʻrisidagi, shuningdek maʼmuriy hududda joylashgan «Vaqtinchalik bir martalik ish bilan taʼminlash markazi»ning manzili, ishga yollanish uchun fuqarolar toʻplanadigan joylar, ularning roʻyxatdan oʻtmasdan yashashi mumkin boʻlgan manzillar toʻgʻrisida maʼlumotlarni beradi.

Zarur hollarda ular bilan hamkorlikda Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi boʻlmagan shaxslarning pasport-viza qoidalariga rioya etilishini taʼminlash borasida maʼmuriy hududda maxsus tadbirlar oʻtkazish boʻyicha takliflar bilan chiqadilar.

Profilaktika inspektori xorijga chiqish, kelish va fuqarolikni rasmiylashtirish xizmati tomonidan taqdim etilgan roʻyxat asosida hududda doimiy istiqomat qiluvchi chet el fuqarolari va fuqaroligi boʻlmagan shaxslarni militsiya tayanch punktining pasportiga qayd etib boradi.

Amaldagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq, Toshkent shahri va Toshkent viloyatida xizmat olib borayotgan profilaktika inspektorlari



Toshkent shahri va Toshkent viloyatida fuqarolarning turgan joyi bo'yicha vaqtinchalik ro'yxatga qo'yish ishlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiradi.

Shu bilan birga, profilaktika (katta) inspektori o'ziga birlashtirilgan ma'muriy hududda jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash maqsadida, fuqarolar tomonidan shaxsiy o'qotar va ov quroli hamda o'q-dorilarni saqlash, shuningdek ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishini tekshirib, nazorat qilib boradi. Bu borada profilaktika inspektorlari tuman, shahar IIB jamoat tartibini saqlash bo'limlarining nazorat-litsenziyalash tizimi uchun mas'ul bo'lgan xodimlari bilan muntazam ravishda hamkorlik qilib boradilar.

Hududiy profilaktika inspektorlarining olis qishloq (ovul) va chegara hududlarida, ta'lim muassasalari joylashgan hududlarda, bozorlar, o'yingohlar, istirohat, ko'ngilochar va dam olish maskanlari mavjud ma'muriy hududlarda jamoat tartibini saqlash faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari Profilaktika (katta) inspektorlari va militsiya tayanch punktlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha Yo'riqnomada alohida tartibda belgilab berilgan.

Militsiya tayanch punktlariga birlashtirilgan profilaktika inspektorlari, ichki ishlar organlarining boshqa xizmat xodimlari, jalb etilgan qo'shimcha kuch va vositalar, shuningdek, jamoatchilik tuzilmalariga jamoat tartibini saqlashda rahbarlik qilish vazifasi profilaktika katta inspektori zimmasiga yuklatilgan.

Profilaktika katta inspektoriga, Yo'riqnoma bilan profilaktika inspektorlari zimmasiga yuklatilgan vazifalardan tashqari, quyidagi qo'shimcha vazifalar yuklatiladi:

- profilaktika inspektorlarining ish faoliyati ustidan umumiy rahbarlik qilish va nazoratni ta'minlash;

- militsiya tayanch punkti faoliyatini boshqarish;

- militsiya tayanch punkti profilaktika inspektorlari, xizmatga jalb etilgan sohaviy xizmat xodimlari va jamoatchilik vakillari bilan yo'riqnoma o'tkazish;

- profilaktika inspektorlari faoliyatini tahlil qilish;

- profilaktika inspektorlari faoliyati natijalari bo'yicha hisobotlarni umumlashtirish va ichki ishlar organi huquqbuzarliklarning oldini olish xizmatiga taqdim etish;

- militsiya tayanch punkti tarkibidagi subyektlar o'rtasida hamkorlikni tashkil etish va faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqalar.

Profilaktika katta inspektori bo'lmagan militsiya tayanch punktida mazkur vazifalar, ichki ishlar organi boshlig'ining buyrug'iga asosan, profilaktika inspektori zimmasiga yuklatiladi.

Профилактика (кatta) инспекторining xizmat majburiyatlari universal xususiyatga ega bo'lib, ularni muvaffaqiyatli bajarish uchun xodim o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi, tezkor vaziyatni yaxshi bilishi, xizmatda nafaqat zarur kasbiy malaka va vositalarni, balki psixologo-pedagogik bilim va hayotiy tajribani ham qo'llay olishi kerak<sup>1</sup>.

Профилактика (кatta) инспекторlari xizmat faoliyatida qonunchilikka qat'iy rioya qilishlari, yuksak huquqiy madaniyatga ega bo'lishlari, jamoatchilik yordamiga doimiy tayanishlari, yuridik va jismoniy shaxslarning ariza va shikoyatlariga hamda xabarlariga tezlik bilan e'tibor berishlari, ichki ishlar organlari xodimlarining kasb madaniyati qoidalariga qat'iy amal qilgan holda xizmatda va oilada benuqson xulq-atvorga ega bo'lishlari lozim.

Bugungi kunda профилактика инспекторlari jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashda, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, jamoat xavfsizligini qo'riqlashda davlat hokimiyati tayanadigan maxsus ijtimoiy institutga aylanib ulgurdi. Tadqiqot jarayonida ijtimoiy so'rovlarga jalb etilgan fuqarolarning «Siz профилактика инспекторining mahallangiz, turar joyingizda huquq-tartibotni ta'minlashga qaratilgan ishini qanday baholaysiz?» degan savolga aksariyat ko'pchiligining (91,4 %) ijobiy baho bergani ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Ichki ishlar organlarining bevosita militsiya tayanch punktlariga birlashtirilgan holda o'z faoliyatini boshqa sohaviy xizmatlar va jamoatchilik tuzilmalari bilan hamkorlikda olib boruvchi xizmatlardan biri patrul-post xizmati naryadlaridir.

Shuni ta'kidlash kerakki, ichki ishlar organlarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash faoliyatini ta'minlovchi o'ziga xos tizim shakllandi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-aprel qarori bilan tasdiqlangan Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlash konsepsiyasiga binoan Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasi tarkibidagi patrul-post xizmatlari mutlaqo yangicha asosda tuzildi va faoliyati yo'lga qo'yildi. Toshkent shahrida islohotlarga qadar faoliyat yuritgan uchta patrul-post xizmati polki va poytaxt tumanlari ichki ishlar organlaridagi patrul-post xizmati rotalari negizida Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasi Patrul-post xizmati brigadasi va unga qarashli oltita batalyon tashkil etildi. Bu Toshkent shahrida patrul-post xizmati saf bo'linmalari ustidan operativ rahbarlikni tashkil etish, sodir

---

<sup>1</sup> Қаранг: Управление деятельностью служб общественной безопасности: учебник для слушателей Академии управления МВД России. – М., 2000. – С. 95.

etiladigan jinoyatlarga javob qaytarishda ularning operativligi va harakatchanligini oshirish imkonini berdi.

Toshkent shahrida jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash borasida amalga oshirilgan islohotlarning ijobiy natijalarini mamlakat miqyosida yoyish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 27-martdagi «Ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni va Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 31-maydagi «O'zbekiston Respublikasida patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash faoliyatini takomillashtirish choralari to'g'risida»gi qarori bilan mavjud shtatlar soni doirasida patrul-post va jamoat tartibini saqlash xizmatlarining yangi tizimi yaratildi, ularning asosiy vazifalari belgilab berildi hamda namunaviy tashkiliy-shtat tarkibi tasdiqlandi. Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV, viloyatlar IIB patrul-post xizmatlari jamoat tartibini saqlash rotalari, vzvodlari, bo'linmalari, guruhlari bazasida viloyatlar markazlari, yirik shaharlarda patrul-post xizmatlari batalyonlari hamda tuman, shahar ichki ishlar bo'limlarida jamoat tartibini saqlash bo'limlari (bo'linmalari, guruhlari) tuzildi.

Qarorda patrul-post xizmatlarining saf bo'linmalari Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV, Toshkent shahar IIBB, viloyatlar IIBlari va Transportdagi IIBdagi brigada va batalyonlarni o'z ichiga oladi va ular birlashtirilgan ma'muriy hududda bevosita huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini ta'minlashga mas'ul ekanligi belgilab berildi.

Bugungi kunda militsiya tayanch punktlariga birlashtirilgan patrul-post xizmati naryadlari patrul-post va jamoat tartibini saqlash xizmatiga qarashli bo'lib, o'z patrullik yo'nalishlari va postlarida, mahallalar, ko'chalar, maydonlar, istirohat bog'lari, transport obyektlari va militsiya tayanch punktlariga qarashli boshqa jamoat joylarida jamoat tartibi hamda xavfsizlikni, fuqarolar tomonidan belgilangan qonun va qoidalarga rioya qilinishi ustidan nazoratni ta'minlaydilar, jamoat tartibi buzilishining oldini olish, aniqlash hamda bartaraf etish bo'yicha o'z vaqtida choralari ko'radilar.

Patrul-post xizmati naryadlari militsiya tayanch punktiga xizmatga kelgan xodimlarni qayd etish daftarida hisobga olinadi va ularga yo'riqnoma berilib, muayyan hududga birlashtiriladi. Militsiya tayanch punktiga birlashtirilgan patrul-post xizmati xodimlarining soni ikki kishidan kam bo'lmasligi lozim. Militsiya tayanch punkti hududida naryadlarni boshqarish profilaktika inspektori va patrul-post xizmati guruhi komandiri tomonidan amalga oshiriladi, naryadlarni joylashtirishdagi o'zgarishlar haqida IIB va patrul-post xizmati saf bo'linmasi navbatchilik qismiga axborot berib boriladi.

Patrul-post xizmati xodimlari ma'muriy hududda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha bir qator vazifalarni amalga oshiradilar. Ularning bu boradagi vazifalari O'zbekiston Respublikasi IIVning 2003-yil 23-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarining patrul-post xizmati to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi buyrug'ida belgilab berilgan. Nizomida ko'rsatilganidek, patrul-post xizmati naryadlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– xizmat hududidagi kriminogen vaziyat, sodir etilgan jinoyatlar haqida navbatchilik qismi, profilaktika inspektori, tezkor-qidiruv xizmatlari va boshqa xizmatlarga axborot berib borish;

– xizmat yo'nalishida huquqbuzarliklarni keltirib chiqaruvchi sabab va sharoitlar aniqlanganda ularni bartaraf qilish, sodir etilayotgan huquqbuzarliklarni to'xtatish va huquqbuzarlarni qo'lga olish choralari ko'rish;

– huquqbuzarlik sodir etgan shaxs ushlanganda, profilaktika inspektorlari tomonidan unga nisbatan tegishli protsessual hujjatlar rasmiylashtirilib, chora qo'llanishini ta'minlash maqsadida, uni militsiya tayanch punktiga olib kelish;

– xizmat hududida yo'l harakati xavfsizligi qoidalari buzilgani, yo'l-transport hodisasi sodir bo'lgani aniqlanganda, tegishli protsessual hujjatlarni rasmiylashtirish hamda zudlik bilan bu haqda yo'l-patrul xizmati xodimlariga xabar berish;

– hududiy profilaktika (katta) inspektorining ko'rsatmasi asosida patrullik yo'nalishidagi xonadonlarda yashovchi ma'muriy nazoratda turgan, uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilgan, shartli hukm qilingan va muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi qo'llanilgan shaxslarning ularga nisbatan belgilangan cheklashlarga hamda jamiyatda yurish-turish qoidalariga rioya etishlarini nazorat qilish va natijalari haqida axborot berib borish;

– jinoyat sodir bo'lganda tezkor-tergov guruhi yetib kelganiga qadar hodisa joyini qo'riqlab turish hamda guruh yetib kelgach, uning rahbari (tergovchi)ga zarur ma'lumotlarni taqdim etish va boshqalar.

Militsiya tayanch punktlariga birlashtirilgan holda xizmat olib boradigan, jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash asosiy vazifalaridan biri bo'lgan yana bir subyekt – ichki ishlar organlarining yo'l-patrul xizmati naryadlari.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-aprel qarori bilan tasdiqlangan Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlash konsepsiyasi bilan boshlangan islohotlar ichki ishlar organlari yo'l harakati xavfsizligi xizmatlarini ham chetlab o'tmadi.

Ushbu Konsepsiyaga binoan, Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasining yo‘l-patrul xizmatlari faoliyati ham mutlaqo yangicha asosda tuzildi. Shaharning islohotlarga qadar faoliyat yuritayotgan o‘n bitta tumandagi davlat avtomobil nazorati bo‘linmalari, shuningdek batalyon, polk negizida Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasi Yo‘l-patrul xizmati brigadasi, unga qarashli beshta divizion va bitta maxsus divizion tashkil etildi. Bu Toshkent shahrida yo‘l-patrul xizmati saf bo‘linmalari ustidan operativ rahbarlikni tashkil etish, sodir etiladigan jinoyatlarga javob qaytarishda ularning operativligi oshirish imkonini berdi. Qolaversa, yo‘l-patrul xizmati naryadlarining boshqa sohaviy xizmatlar bilan hamkorligi takomillashtirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirish choralari to‘g‘risida»gi farmoni va uning ijrosini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 18-mayda qabul qilgan «Yo‘l harakati xavfsizligi ta‘minlash choralari to‘g‘risida»gi qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi IIV Davlat avtomobil nazorati tizimlari negizida Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati tashkil etildi hamda mavjud shtatlar soni doirasida davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmatlarining tizimi yaratildi, ularning asosiy vazifalari belgilab berildi hamda namunaviy tashkiliy-shtat tarkibi tasdiqlandi. Shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV, viloyatlar IIB Davlat avtomobil nazorati rotalari, vzvodlari, bo‘linmalari, guruhlari bazasida viloyatlar markazlari, yirik shaharlarda yo‘l-patrul xizmati batalyonlari, alohida otradlari hamda tuman, shahar ichki ishlar bo‘limlarida yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limlari (bo‘linmalari, guruhlari) tuzildi.

Qarorda belgilanganidek, yo‘l-patrul xizmatlarining saf bo‘linmalari Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV, Toshkent shahar IIBB, viloyatlar IIB va Transportdagi IIBdagi brigada, batalyonlarni va alohida otradlarni o‘z ichiga oladi va ular birlashtirilgan ma‘muriy hududda yo‘llarda harakat xavfsizligini ta‘minlash, yo‘l-transport hodisalari, bevosita huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat tartibini va fuqarolar xavfsizligini ta‘minlashga mas‘uldirlar.

Bugungi kunda respublikamizning viloyat markazlari va shaharlarida faoliyati yo‘lga qo‘yilgan yo‘l-patrul xizmati naryadlari mahallalardagi militsiya tayanch punktlariga birlashtirilgan holda, u yerda hududiy profilaktika inspektorlari, ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmatlari hamda jamoatchilik tuzilmalari vakillari bilan hamkorlikda xizmat olib bormoqdalar.

O‘zbekiston Respublikasi IIVning ichki ishlar organlari yo‘l harakati xavfsizligi xizmatlari yo‘l-patrul xizmati safdagi bo‘linmalarining faoliya-

tini belgilab beruvchi idoraviy me'yoriy-huquqiy hujjatlarida belgilangani-dek, yo'l-patrul xizmatlariga quyidagi asosiy vazifalar yuklatilgan:

- yo'l harakati qatnashchilarining hayoti, sog'lig'i va mol-mulkini muhofaza etish, ularning qonuniy haq-huquqlari va manfaatlarini himoya qilish;

- xizmat hududida transport vositalarining xavfsiz va uzluksiz harakatlanishini ta'minlash;

- yo'l harakati doirasidagi jinoiy va ma'muriy huquqbuzarliklarning oldini olish chorasini ko'rish va barham berish;

- o'z vakolati doirasida yo'l harakati qatnashchilariga qonuniy huquq va manfaatlarini amalga oshirishda ko'maklashish va yordam ko'rsatish;

- yo'l harakati qoidalari, yo'l harakati xavfsizligiga doir boshqa me'yoriy va huquqiy hujjatlarga rioya etilishini nazorat qilish;

- yo'llarda harakatlanishni tartibga solish, ommaviy tadbirlar va favqulodda vaziyatlarda, qutqarish ishlari olib borilayotgan joylarda transport vositalari va piyodalarning harakatlanishini tashkillashtirish;

- jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta'minlash, ko'cha, yo'l va boshqa jamoat joylarida jinoiy va ma'muriy huquqbuzarliklarning oldini olish va bartaraf etish;

- olib qochilgan va o'g'irlangan transport vositalarini hamda yo'l-transport hodisasi sodir etib voqyea joyidan haydovchilari yashiringan yoki boshqa sabablarga ko'ra qidiruvda bo'lgan transport vositalarini aniqlash va ushlab choralarni ko'rish;

- amaldagi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida ko'rsatib o'tilgan ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha ishlarni o'z vakolatlari doirasida ko'rib chiqish;

- yo'l-transport hodisasi sodir etilgan joyda kechiktirib bo'lmas harakatlarni amalga oshirish, jabrlanuvchilarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, shikastlangan transport vositalarini belgilangan joyga olib borish, qarovsiz qoldirilgan mol-mulkni qo'riqlashga ko'maklashish;

- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi asosida harakat xavfsizligini ta'minlashga va transport vositalaridan foydalanishga qarshi jinoyatlar yuzasidan surishtiruv ishlarini olib borish;

- patrul avtomobilida kuzatib borish orqali o'rnatilgan tartibda transport vositalarining harakatlanish xavfsizligini ta'minlashni amalga oshirish;

- yo'l-transport hodisasining kelib chiqishiga sabab bo'luvchi qoidabuzarliklar yoki yo'l harakati xavfsizligiga raxna soluvchi boshqa xatti-harakatlarning sabab va sharoitlarini aniqlash va ularni bartaraf etish choralarni ko'rish;

– yo‘l harakati doirasida yuzaga kelgan vaziyat va ularni bartaraf etishda ko‘rilayotgan choralar haqida aholini xabardor etib turish, bu borada ommaviy axborot vositalaridan keng foydalanish;

– yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan profilaktik tadbirlarni manfaatdor idoralar, tashkilotlar, mahalliy hokimiyatlar, o‘zini o‘z boshqarish organlari, fuqarolar bilan birgalikda amalga oshirishda qatnashish;

– yo‘l harakatini boshqarishda texnik vositalarning holati va jihozlani-shini, avtomobil yo‘llari, ko‘chalar va maydonlarda ta‘mirlash-qurish ish-larini olib borishda belgilangan shart-sharoitlar ta‘minlanishini nazorat qilish;

– ichki ishlar organlarining xorijga chiqish-kirish va fuqarolikni ras-miylashtirish xizmatining joylardagi xodimlari bilan birga, chet el fuqaro-lari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tomonidan transport vositalarida O‘zbekiston hududiga kirish, chiqish, bo‘lish va tranzit o‘tish tartiblariga rioya qilinishi nazoratini amalga oshirishda qatnashish.

Militsiya tayanch punktlarida faoliyat olib borishi uchun alohida xizmat xonasi ajratilgan voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlari yoki tayanch punktlariga birlashtirilgan holda xizmat olib boruvchi ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmatlari, jumladan qo‘riqlash xizmati, yong‘in xavfsizligi xiz-mati, xorijga chiqish, kelish va fuqarolikni rasmiylashtirish xizmati, jinoyat qidiruv va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash xizmati xodimlari o‘z zimmalaridagi asosiy vazifalarni bajarish bilan birga, ma‘muriy hududda jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta‘minlash bilan bog‘liq bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi IIVning me‘yoriy-huquqiy hujjatlarida belgilan-gan muayyan vazifalarni ham amalga oshiradilar. Xususan:

– sodir etilishi mumkin bo‘lgan jinoyatlar, eng avvalo, o‘ta xavfli jinoyatlar (qo‘poruvchilik-terrorchilik faoliyati, uyushgan jinoyatchilik) va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha maqsadli tadbirlarni o‘tkazish;

– profilaktik hisobda turgan muqaddam sudlanganlar, ma‘muriy nazo-rat ostidagi va boshqa toifa shaxslarga nisbatan yuritilgan hisoblarning to‘liq-ligini ta‘minlash va amaldagi qonunlar asosida yuritilishini tashkil etish;

– profilaktik hisobda turgan voyaga yetmaganlar va ularning ota-onalari bilan yakka tartibdagi tarbiyaviy-ogohlantiruv ishlarini olib borish;

– jazoni ijro etish muassasalaridan jazoni o‘tab qaytgan shaxslarni ishga joylashtirish, moddiy va maishiy sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha ijtimoiy ko‘nikma markazi bilan hamkorlik qilish;

– doimiy daromad manbai bo‘lmagan, mardikorhilik bilan shug‘ullanuvchi shaxslarni «Vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta‘minlash» markazlari orqali ish bilan ta‘minlanishida yordam ko‘rsatish;

– fuqarolarning arizalari, xabarlari asosida olingan, tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan jinoyat va huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z vaqtida qayd etish va ko‘rib chiqish. boshqa xizmat xodimlari bilan hamkorlikda ushbu jinoyatlarni fosh etish hamda jinoyatchilarni ushlashni tashkil etish;

– davlat korxonalari va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda ichki-likbozlik, giyohvandlik, fohishabozlik, teri-tanosil kasalliklarini tarqatish va OITS (SPID)ga qarshi kurash bo‘yicha belgilangan tadbirlarni amalga oshirish;

– tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etishda, favqulodda vaziyatlarida aholining xavfsizligini ta‘minlash uchun tegishli xizmatlarga yaqindan yordam ko‘rsatish;

– korxonalar, tashkilot, muassasalar hamda fuqarolarning obodonlashtirish va sanitariya qoidalariga rioya qilishlarini nazorat qilish;

– hududdagi tezkor vaziyat asosida jamoat tartibini ta‘minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, davlat va jamiyat mulkini saqlash, jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni tashkil etish va bu boradagi faoliyatni takomillashtirish bo‘yicha ichki ishlar organlari rahbariyatiga aniq takliflar kiritish va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2002-yil 22-martdagi «Milisiya tayanch punktida ichki ishlar organlari xodimlari va jamoatchilik tuzilmalari vakillarining hamkorligidagi faoliyatini tashkillashtirish bo‘yicha «Uslubiy qo‘llanma»ni tasdiqlash haqida»gi buyrug‘i bilan belgilangan ushbu vazifalarning ko‘pchiligi huquqbuzarlik va jinoyatlar profilaktikasi bilan bog‘liq bo‘lsa-da, ularning amalga oshirilishi, o‘z navbatida, ma‘muriy hududda jamoat tartibini saqlashga xizmat qiladi.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, militsiya tayanch punktlari nafaqat ichki ishlar organlari xodimlari uchun, qolaversa, mahalla posbonlari, mahalladagi diniy ma‘rifat va ma‘naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslahatchilar, yarashtirish komissiyalari va boshqa tegishli komissiyalari uchun ham asosiy tayanch punkt hisoblanadi. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari negizida faoliyati yo‘lga qo‘yilgan ushbu jamoatchilik tuzilmalari ichida asosan mahalla posbonlari jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta‘minlashda ichki ishlar organlariga bevosita yordam ko‘rsatadilar. Diniy ma‘rifat va ma‘naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslahatchilar, yarashtirish komissiyalari, xotin-qizlar bilan



ishlash bo'yicha komissiyalar, voyaga yetmaganlar, yoshlar va sport masalalari bo'yicha komissiyalar va boshqa tegishli komissiyalar esa ichki ishlar organlariga huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning sabab va sharoitlarini bartaraf etish, aholini ijtimoiy-huquqiy himoya qilish, jumladan ularning huquqiy madaniyatini yuksaltirishda yaqindan yordam ko'rsatadilar.

«Mahalla posboni» jamoatchilik tuzilmasi mamlakatimizda tinchlik, osoyishtalik, xavfsizlikni ta'minlash, jamoat tartibini saqlash, fuqarolarda ogohlik va faollikni oshirish, huquq-tartibotni mustahkamlashda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan davlat organlari o'rtasidagi hamkorlik ishlarini tizimli yo'lga qo'yish maqsadida barcha fuqarolar yig'inlarida tashkil etiladi.

Jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashda mahalla posboni tuzilmalarining kuchli salohiyatidan to'liq foydalanish, ular safiga keng ommani jalb etish, tayyorgarligini kuchaytirish va chegara qo'shinlari hamda huquq-tartibot idoralari bilan hamkorligini ta'minlash katta ahamiyatga ega<sup>1</sup>. Jamiyatda «Mahalla posboni» jamoatchilik tuzilmalari faoliyatining yo'lga qo'yilishi fuqarolarning faolligini oshirish orqali huquqiy demokratik davlat qurish jarayonini jadallashtirish, davlat boshqaruv organlarining ayrim vakolatlarini fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga o'tkazishga keng yo'l ochish, osoyishtalikni ta'minlash, huquqiy targ'ibotni mustahkamlashda davlat va jamoat tashkilotlari o'rtasida hamkorlikni ta'minlashga keng yo'l ochib berdi.

Jamoatchilik tuzilmasi fuqarolar yig'ini kengashi tomonidan, fuqarolar yig'ini raisining taqdimnomasiga asosan, hududiy ichki ishlar organlarining profilaktika inspektori bilan kelishgan holda hududda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklar va jinoyatchilik holatlarining oldini olishda huquqni muhofaza qilish organlariga ixtiyoriy ravishda yordam berish istagini bildirgan fuqarolardan iborat tarkibda shakllantiriladi. Tuzilma a'zolariga jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishga doir profilaktika tadbirlarida ixtiyoriy ravishda ishtirok etish istagini bildirgan, jismoniy va ma'naviy sog'lom, fuqarolarning huquq va erkinliklarini hurmat qiladigan, yuksak insoniy va axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni yoki safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni o'tagan 18 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari qabul qilinadi.

---

<sup>1</sup> Қаранг: *Каримов И.А.* Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт — пировард мақсадимиз. Т. 8. — Т., 2000. — Б. 350.

Jamoatchilik tuzilmasi a'zolari soni tegishli hududning tabiiy-geografik, ijtimoiy-iqtisodiy, demografik, kriminogen xususiyatlaridan kelib chiqib, ichki ishlar organlarining profilaktika inspektori bilan kelishgan holda, fuqarolar yig'ini kengashining qaroriga muvofiq belgilanadi va o'zgartiriladi. Jamoatchilik tuzilmasi a'zolari soni 6 nafardan 16 nafargacha bo'lishi lozim.

Jamoatchilik tuzilmasi a'zolariga nomzodning belgilangan talablarga muvofiqligini o'rganib chiqish uchun fuqarolar yig'ini raisi va hududiy profilaktika inspektori shaxsan mas'uldirlar. Fuqarolar yig'ini raisi va hududiy profilaktika inspektori tomonidan fuqarolarni jamoatchilik tuzilmasi a'zolariga qabul qilish va a'zolikdan chiqarishni qayd etish bo'yicha maxsus daftar yuritiladi hamda a'zolar faoliyati monitoringi olib boriladi. Ushbu daftar tegishli hududdagi militsiya tayanch punktida saqlanadi.

Ijobiy tavsiflangan shaxslarni posbonlikka qabul qilishda va o'zlarini salbiy tomondan namoyon etgan shaxslarni posbonlikdan chiqarishda hudud profilaktika inspektorining fikri inobatga olinadi. U ichki ishlar organi boshlig'iga hisobda turuvchi shaxslar bilan tarbiyaviy ish olib borishda faol qatnashgan, jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashda o'rnak ko'rsatgan «Mahalla posboni» jamoatchilik tuzilmalari a'zolarini taqdirlash bo'yicha takliflar kiritadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, militsiya tayanch punktlari negizida ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari xodimlari mahalla posbonlari bilan boshqa jamoatchilik tuzilmalariga nisbatan ko'proq hamkorlikda ish olib boradilar. Buni o'tkazilgan ijtimoiy so'rovda qatnashganlarning 52,8 foizi ham ma'qullashgan.

Shu sababli profilaktika inspektori ushbu jamoatchilik tuzilmalari bilan hamkorlikda ish olib borish bilan birga, ichki ishlar organlari sohaviy xizmat xodimlarining ular bilan hamkorlikdagi faoliyatini ham muvofiq- lashtirib boradi.

O'z vazifasini sidqidildan bajarmagan, faoliyati salbiy baholangan, qonunga zid xatti-harakatlar qilgan shaxslarni jamoatchilik tuzilmasi a'zolari safidan chiqarish fuqarolar yig'ini raisi tavsiyasiga asosan fuqarolar yig'ini kengashining qarori bilan amalga oshiriladi.

Mahalla posbonlari ma'muriy hududda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha quyidagi vazifalarni amalga oshiradilar:

– fuqarolarning, ayniqsa, voyaga yetmaganlar va yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, tegishli hududda qonun ustuvorligi va osoyish-talikni, jamiyatda yurish-turish qoidalariga va axloq-odob mezonlariga rioya qilinishini ta'minlash, hududda tartib o'rnatishda huquqni muhofaza qilish organlari xodimlariga ko'maklashish;

– ichki ishlar organlari hisobida turuvchi, tarbiyasi og‘ir voyaga yetmagan shaxslar bilan aniq maqsadli profilaktika tadbirlarini tashkillashtirish va o‘tkazishda ishtirok etish;

– fuqarolar tomonidan pasport tizimi, sanitariya, yong‘in va harakat xavfsizligi qoidalariga rioya etilishi yuzasidan tegishli hududda tushuntirish ishlarini olib borishda ishtirok etish;

– hududda xavfsizlikni va jamoat tartibini saqlash, fuqarolar ogohliligini oshirish, jinoyat sodir bo‘lganda aybdor shaxslarni aniqlash tadbirlarida qatnashish;

– konstitutsiyaviy tizimga qarshi turli axborotlarni tarqatuvchi shaxslarni aniqlash hamda ular bilan profilaktik-tarbiyaviy ishlar olib borish;

– jamiyatda ijtimoiy-ma‘naviy muhitni sog‘lomlashtirishga ko‘maklashish, ekologiya va tabiatni muhofaza qilish, obodonlashtirish hamda ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha hududiy dasturlarda belgilangan chora-tadbirlar ijrosini ta‘minlash;

– tegishli hududda noqonuniy istiqomat qilayotgan, uzoq muddatdan buyon uyiga kelmayotgan shaxslar hamda o‘zlariga ma‘lum bo‘lgan, sodir etish uchun tayyorgarlik ko‘rilayotgan jinoyatlar to‘g‘risida tuzilma rahbarini va ichki ishlar organlarining hududiy profilaktika inspektorini yoki tegishli huquqni muhofaza qilish organlarini xabardor qilish;

– jamoatchilik tuzilmasiga yuklatilgan boshqa vazifalarni amalga oshirishda faol ishtirok etish<sup>1</sup>.

«Mahalla posboni» jamoatchilik tuzilmasi a‘zolari o‘zlariga yuklatilgan vazifalarni bajarish jarayonida muayyan huquqlarga ega.

Hozirgi kunda Namangan viloyati ichki ishlar organlari tizimida mahallalar va boshqa aholi turar joylarida mahalla posbonlari yordamidan foydalanish bo‘yicha yaxshi tajriba shakllangan. Viloyatdagi mavjud mahalla, ovul va qo‘rg‘onlarning asosiy kirish yo‘llari hamda aholi gavjum joylarida «jamoatchilik nazorat maskanlari»ning faoliyati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ularda kunning muayyan vaqtlarida mahalla posbonlarining navbatchiligi tashkil etilgan. Mahalla posbonlari mazkur maskanlarda faoliyat olib borish vaqtida mahallaga kirayotgan begona shaxslar va transport vositalarini kuzatib, ularning hisobini yuritadilar.

Maskanda jamoatchilik faoliyati muntazam ravishda mahalla fuqarolar yig‘ini raisi, profilaktika inspektori tomonidan nazorat va tahlil qilinib, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining umumiy yig‘ilishida muhokama qilib boriladi. Fikrimizcha, Namangan viloyati ichki ishlar

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг қарорлари тўплами. – 2014. – №10. – 106-м.

organlari tizimidagi ushbu ilg'or tajribani butun respublika miqyosida joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Biroq, hozirgi kunda mahalla posbonlarining imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanishga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan muayyan muammo va kamchiliklar ham uchramoqda. Bularga ayrim militsiya tayanch punktlarida mahalla posbonlari uchun alohida xizmat xonalarining yo'qligi, ular uchun muayyan xizmat kiyimining ta'sis etilmagani, ayrim mahalla posbonlari tomonidan «Mahalla posboni» jamoatchilik tuzilmalari to'g'risidagi nizomda belgilangan huquq va vakolatlar doirasidan chetga chiqish, ularni sui-iste'mol qilish, fuqarolarga o'zlarini ichki ishlar organi xodimi sifatida ko'rsatib, ularning vakolatiga kiruvchi funksiyalarni o'zboshimchalik bilan bajarish va qonunbuzarlikka yo'l qo'yish holatlari kuzatilayotganini kiritish mumkin. Shu sababli o'tgan yillar ichida ayrim mahalla posbonlari salbiy sabablarga ko'ra, ba'zilar esa jinoyat sodir etgani uchun ushbu tuzilmalar safidan chiqarilgan.

Amaliyotda mahalla posbonlari tomonidan salbiy holatlarga yo'l qo'yilayotganini ijtimoiy so'rovda ishtirok etgan profilaktika inspektorlari va mahalla oqsoqollarining 85 % ham tasdiqlagan. Jumladan, so'rovga qatnashganlarning 30 % mahalla posbonlari faoliyatida fuqarolarga o'zini ichki ishlar organi xodimi sifatida ko'rsatish, 45 % o'zboshimchalik bilan ichki ishlar organlari xodimlarining vakolat doirasiga kiradigan vazifalarni bajarishga urinish, 25 % egallab turgan jamoatchilik lavozimlaridan ko'p hollarda o'z manfaatlari yo'lida foydalanish hollari uchrab turishini ko'rsatganlar. Shuningdek, o'tkazilgan tadqiqotlarda bugungi kunda 40 % mahalla posbonlarining hududda istiqomat qiluvchi muqaddam sudlangan va jamiyatga zid turmush tarzi yurituvchi shaxslarning sodir etilgan jinoyatga aloqadorligini aniqlash maqsadida ular bilan yakka tartibda suhbatlar o'tkazayotgani, 15 % – muayyan hududda sodir etilgan jinoyatlarni o'zicha fosh etishga harakat qilayotgani, 25 % – qidiruvda bo'lgan jinoyatchilarni bevosita o'zlari ushlab choralarni ko'rayotgani, 20 % – jinoyatlarning sabab va sharoitlarini o'zlari mustaqil bartaraf qilishga urinayotgani aniqlangan<sup>1</sup>.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'tgan yillar ichida militsiya tayanch punktlarida faoliyat olib boruvchi ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlari xodimlarining fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ular negizidagi jamoatchilik tuzilmalari bilan uzluksiz va samarali hamkorligini tashkil etish maqsadida militsiya tayanch punktlarini fuqarolarning o'zini

---

<sup>1</sup> Каранг: Мухторов Ж. С. Маҳалла посбони // Нуқуқ–Право–Law. – 2005. – № 3. – Б. 2–4.

o'zi boshqarish organlari bilan bitta binoda joylashtirishga asosiy e'tibor qaratildi. Buning natijasida 2014-yilning yakuniga kelib mamlakatimizdagi mavjud militsiya tayanch punktlarining 91,2 foizi mahalla fuqarolar yig'inlari bilan bitta binoda joylashgan holda faoliyat yuritib kelmoqda.

«Mahalla posboni» jamoatchilik tuzilmalarining ichki ishlar organlari xodimlari bilan hamkorligining natijalari haqidagi statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 2001–2014-yillar davomida yiliga o'rtacha 6270 ta jinoyatning fosh etilishida mahalla posbonlarining yordamida bo'lib, jinoyatlar ochilishida mahalla posbonlarining ishtiroki 2014-yilda 2001-yilga nisbatan 2,5 baravar oshgan. Shu bilan birga, yiliga o'rtacha 1010 dan ortiq jinoyat bevosita mahalla posbonlari tomonidan ochilgan<sup>1</sup>.

Joylarda o'z vazifalariga sidqidildan yondashib, boshqalarga o'rnak bo'lgan mahalla posbonlarini rag'batlantirib borish mamlakatimizda an'anaga aylanib bormoqda. Xususan, 2001–2014-yillar davomida yiliga o'rtacha 2620 nafar mahalla posbonlari davlat hokimiyati organlari tomonidan rag'batlantirilgan bo'lsa, ushbu yillarda yiliga o'rtacha 832 nafar mahalla posbonlariga ichki ishlar idoralarida xizmat qilish uchun yo'llanma berilgan, ularning yiliga o'rtacha 270 nafarga yaqini ichki ishlar organlari xizmatiga qabul qilinganlar.

Bundan tashqari, o'tgan yillar ichida bir qator mahalla posbonlarining fidokorona mehnatlari davlatimiz tomonidan munosib baholanib, tegishli davlat mukofotlari bilan ham rag'batlantirildi. Xususan, Andijon viloyati Oltinko'l tumani «Oxunboboyev» nomli QFY «Mahalla posboni» jamoatchilik tuzilmasi sardori M. Mamatqulov va Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani «Mirzacho'l» QFY «Mahalla posboni» jamoatchilik tuzilmasi sardori A. Safarovlar «Shuhrat» medali bilan mukofotlanganini misol o'rnida ko'rsatish mumkin<sup>2</sup>.

O'tgan yillar mobaynida respublikamizdagi operativ vaziyat tahlili shuni ko'rsatadiki, militsiya tayanch punkti subyektlarining jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash faoliyati o'zining samarasini berib kelmoqda. Jumladan, 2002-yilda mamlakatimiz mahallalarining 11,6 %da umuman jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmagan bo'lsa, 2003-yilda bu ko'rsatkich 18,6 %ni, 2004-yilda 20,1 %ni, 2005-yilda 23,9 %ni, 2006-yilda 26,1 %ni,

---

<sup>1</sup> Ўқув қўлланмада Ўзбекистон Республикаси ИИВ Ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш бош бошқармасининг 2001–2014 йиллардаги фаолияти бўйича статистик маълумотлар таҳлилидан фойдаланилди.

<sup>2</sup> Батафсил маълумот учун қаранг: Рўзиев З. Туну кун хизматда // Постда. – 2008. – 13 сент.; Мирюсуфзода Ш., Саидов И. Ёниб яшар бир аёл // Постда. – 2008. – 6 сент.

2007-yilda 26,7 %ni, 2008-yilda 26,6 %ni, 2009-yilda 27,1 %ni, 2010-yilda 22,1 %ni, 2011-yilda 22,6 %ni, 2012-yilda 23,3 %ni, 2013-yilda 22,9 %ni, 2014-yilda 22,2 %ni tashkil etdi.

Hozirgi kunda militsiya tayanch punktlari faoliyatidagi yechimini kutayotgan muammolardan biri ularning nomlanishi bilan bogʻliq masaladir. Ushbu masalani chuqur tahlil qilib, bu borada muayyan qarorga kelish ham bugun juda dolzarb hisoblanadi. Chunki ichki ishlar organlari tizimida amalga oshirilgan islohotlar samarasi oʻlaroq, bugungi kunda tizimda «militsiya» atamasidan militsiya tayanch punktlarining nomlanishida foydalanilmoqda, xolos<sup>1</sup>.

Tadqiqot jarayonida oʻtkazgan sotsiologik soʻrovda mutaxassislardan militsiya tayanch punktlarining nomlanishi xususidagi fikrlari soʻralganda, qatnashchilarning 5,1 % ularni «Ichki ishlar organlari tayanch punkti», 10,2 % «Mahalla tayanch punkti» deb nomlashni maʼqul koʻrishgan boʻlsa, 67,3 % «Militsiya tayanch punkti» deb nomlanishining oʻzi maʼqul ekanini aytishdi. Qolgan 17,4 % esa ushbu tuzilmalarning nisbatan zamonaviy nomini oʻylab topish yoxud xorij tajribalaridan kelib chiqib ularni qayta nomlash maqsadga muvofiq, deb hisoblashdi. Fikrimizcha, respublikamizda «Ichki ishlar organlari toʻgʻrisida»gi qonunning qabul qilinishi mazkur muammoning yechimini topishga xizmat qiladi.

Hududda kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish va aholi xavfsizligini tun-u kun taʼminlashda bir-biriga yaqin joylashgan militsiya tayanch punktlarining faoliyatini samarali boshqarish, kuch va vositalardan foydalanishda tezkorlik va tejamkorlikka erishish maqsadida, maʼmuriy hudud-dagi oʻziga xos xususiyatlar, kriminogen holatni inobatga olgan holda, shahar va tumanlarda Qoraqalpogʻiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri, Toshkent shahar IIBB va viloyatlar IIB boshliqlarining Oʻzbekiston Respublikasi IIV Huquqbuzarliklarning oldini olish bosh boshqarmasi bilan kelishilgan holda chiqargan buyruqlari asosida boʻysunuvida uchtadan beshtagacha boʻlgan militsiya tayanch punktlarini qamrab olgan markaziy militsiya tayanch punktlari tashkil etiladi.

Markaziy militsiya tayanch punktida militsiya tayanch punkti uchun ajratiladigan xonalardan tashqari qoʻshimcha ravishda profilaktika katta inspektori uchun alohida xizmat xonasi, navbatchilik qismi, xorijga chiqish, kelish va fuqarolikni rasmiylashtirish xizmati xodimining xizmat xonasi ajratiladi.

---

<sup>1</sup> Қаранг: Милиция қандай ислохотга мухтож // Ҳуқуқ–Право–Law. – 2004. – № 1. – Б. 9.

Markaziy militsiya tayanch punktlari bilan hududiy IIV–IIBB–IIB Huquqbuzarliklarning oldini olish boshqarmalari va ichki ishlar organi navbatchilik qismlari o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa o‘rnatiladi hamda ularda kecha-yu kunduz profilaktika inspektorlarining navbatchiligi tashkil etiladi.

Markaziy militsiya tayanch punkti profilaktika katta inspektoriga yuklatilgan qo‘shimcha vazifalarni to‘liq bajarishi uchun ichki ishlar organlari rahbarlari tomonidan kam hajmdagi xizmat hududi birlashtiriladi.

Markaziy militsiya tayanch punkti profilaktika katta inspektoriga o‘z xizmat vazifalarini bajarishdan tashqari qo‘shimcha quyidagi vazifalar yuklatiladi:

- markaziy militsiya tayanch punktiga birlashtirilgan militsiya tayanch punktlarining faoliyatini tashkil etish va nazorat qilish;

- birlashtirilgan militsiya tayanch punktlarining hisobotlarini umumlashtirish, tahlilini olib borish va rahbariyatga jinoyatchilikning oldini olish yuzasidan takliflar kiritish;

- jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida sohasiy xizmat xodimlari hamda jamoat tashkilotlari, mahalla qo‘mitalari, «Mahalla posbonlari» jamoat tuzilmalarining hamkorlikdagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

- markaziy militsiya tayanch punktiga birlashtirilgan militsiya tayanch punktlarining umumiy chizma tarhini tayyorlash va ichki ishlar organi rahbari tasdiq‘idan o‘tkazish;

- markaziy militsiya tayanch punktiga birlashtirilgan militsiya tayanch punktlari hududlarida sodir etilgan jinoyatlar bo‘yicha voqeya joyiga tezkor-tergov guruhi yetib kelgunga qadar profilaktika inspektorlarining chiqishini ta‘minlash va ularning aniq vazifalarini belgilash;

- fuqarolardan tushgan ariza va shikoyatlar hamda jinoyatlar to‘g‘risidagi xabarlarining o‘z muddatida, sifatli va to‘liq o‘rganib chiqilishini hamda ular bo‘yicha qonunda belgilangan tartibda choralarni ko‘rilishini ta‘minlash;

- profilaktika (katta) inspektorlari tomonidan profilaktik hisobda turgan barcha toifadagi shaxslarni muntazam ravishda yashash va ish joylaridan tekshirib borilishini nazorat qilish;

- militsiya tayanch punktlarida yuritilayotgan barcha hujjatlar, profilaktik yig‘majildlar doimiy ravishda to‘ldirilib, ulardagi ma‘lumotlar yangilanib borilayotganini tekshirib, tavsiya va takliflar berish.

Bugungi kunda ichki ishlar organlari tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning tarkibiy qismi sifatida joylardagi militsiya tayanch punkt-

larini boshqarish, ular faoliyatining samaradorligini yanada oshirish maqsadida respublikamizning Namangan viloyatida Markaziy militsiya tayanch punktlarining faoliyati butun boshli tizim sifatida yo'lga qo'yilgan. Viloyat IIB HOOBda tashkil etilgan «Markaziy boshqaruv» tizimi tomonidan viloyatda mavjud 370 ta militsiya tayanch punktini samarali boshqarishda faoliyati yo'lga qo'yilgan 70 dan ortiq markaziy militsiya tayanch punkti ishining natijasi ijobiy bo'lmoqda.

Markaziy militsiya tayanch punktlari faoliyatining yo'lga qo'yilganligi natijasida: birinchidan, militsiya tayanch punktlari faoliyatini boshqarish yengillashdi hamda kuch va vositalardan foydalanishda tezkorlik va tejamkorlikka erishildi; ikkinchidan, xizmat bo'yicha zarur ko'rsatma, topshiriq va axborotlarni militsiya tayanch punktlariga yetkazish hamda qabul qilishda tezkorlik va aniqlikka erishildi; uchinchidan, markaziy militsiya tayanch punktlarida xorijga chiqish kelish va fuqarolikni rasmiylashtirish xizmati xodimlari uchun xonalarning ajratilganligi haftaning belgilangan kunlarida ular tomonidan fuqarolarni bevosita qabul qilishlari hamda mazkur maskanlarning o'zida pasport berish, almashtirish yoki pasport tizimi bilan bog'liq boshqa masalalarni hal qilish imkonini berdi; to'rtinchidan, yo'l harakati xavfsizligi xizmatlari tomonidan markaziy militsiya tayanch punktlarida haftaning belgilangan kunlarida ma'muriy hududda yashovchi fuqarolarning avtotransport vositalarini texnik ko'rikdan o'tkazish va boshqa shunga o'xshash shart-sharoitlar yo'lga qo'yildi va hokazo.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunda O'zbekistonda aholi turar joylarida jamoat tartibini saqlashning o'ziga xos tizimi shakllandi. Bu tizimning afzalliklarini quyidagilarda ko'rish mumkin:

birinchidan, militsiya tayanch punktlari ichki ishlar organlarining tunu kun faoliyat olib boruvchi eng quyi bo'g'ini bo'lib, uning negizida soha xodimlarining jamoatchilik bilan uzluksiz hamkorligi yo'lga qo'yildi. Aholi turar joylarida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish hamda fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha militsiya tayanch punktlari negizida ichki ishlar organlarining fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda ular negizidagi yarashtirish komissiyalari, yoshlar komissiyalari, diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchilar va «Mahalla posboni» jamoatchilik tuzilmalari bilan samarali hamkorligi yo'lga qo'yilishi bu borada o'zining natijalarini bermoqda. 2001–2014-yillar davomida har yili o'rtacha bir yarim mingdan ortiq jinoyat jamoatchilik yordamida fosh etilib kelinayot-



gan bo'lsa, har yili o'rtacha sakkiz mingga yaqin jinoyat sodir etilishining oldi olinib kelingan;

ikkinchidan, militsiya tayanch punktlari negizida ichki ishlar organlari xodimlarining jamoatchilik bilan uzluksiz hamkorligining yo'lga qo'yilgani, avvalo, ichki ishlar organlarini yanada aholiga yaqinlashtirishga zamin yaratayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan bu hududda ichki ishlar organlari xizmatlarining keng ko'lamli faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish imkonini yanada kengaytirmoqda. Binobarin, ichki ishlar organlari faoliyatining demokratik asoslari ularning nafaqat davlat va qonun, balki jamoatchilik oldida ham hisobdor bo'lishini talab qiladi<sup>1</sup>;

*uchinchidan*, bitta hududga xizmat ko'rsatuvchi turli tarmoqdagi ichki ishlar organlarining bevosita hamkorlikda ish olib borishlari uchun sharoit yaratildi. Bu bilan O'zbekiston Respublikasi IIV tomonidan qo'yilayotgan talab – ichki ishlar organlari barcha sohaları xodimlarining o'z ishini mahalladan, tayanch punktlarida xizmat qilayotgan profilaktika inspektorlari bilan hamkorlikdan boshlashlariga erishilmoqda;

*to'rtinchidan*, endilikda militsiya tayanch punktida xizmat olib boruvchi subyektlar, jumladan profilaktika inspektori faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri – aholining huquqiy madaniyati, ongi va dunyoqarashini rivojlantirish qilib belgilandi;

*beshinchidan*, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olish maqsadida militsiya tayanch punktlarida voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida tashkiliy-tarbiyaviy, ommaviy-sport tadbirlarini tashkillashtirish hamda ularning bo'sh vaqtini samarali o'tkazish maqsadida militsiya tayanch punktlari infratuzilmasida sport maydonchalari, jumladan futbol, basketbol, voleybol maydonlari, suzish havzalari, trenajyor xonalari tashkil etildi hamda tajribali mutaxassislar jalb etilgan holda turli sport musobaqalarini o'tkazib borish yo'lga qo'yildi.

---

<sup>1</sup> Руководство по демократическим основам полицейской деятельности / Составлено Старшим советником Генерального секретаря ОБСЕ по вопросам полицейской деятельности. – Вена, 2008. – С. 14.

### 3-§. Ma'muriy hududlarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha xorij tajribasi

Turli davlatlarda ma'muriy hududlarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash faoliyati turlicha yo'llar, usullar bilan ta'minlanadi. Ushbu sohada har bir davlat o'ziga xos tajribaga ega bo'lib, ularni o'rganish hamda yurtimiz jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash tizimiga tatbiq etish bugunning dolzarb talablaridan biridir.

Ma'muriy hududlarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash borasida xorijiy davlatlar to'plagan tajribani o'rganish bu masalaga tizimli yondashuvni talab qiladi. Shu sababli, ko'zlangan maqsadga erishish uchun quyidagicha yondashish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz:

**Xorijiy davlatlar jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash tizimlari.** Har bir davlatning jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash tizimi boshqa mamlakatlarnikidan muayyan xususiyati bilan ajralib turadi. Bu borada o'ziga xos tajriba **Rossiya Federatsiyasida** to'plangan. Mamlakat Konstitutsiyasining 72-moddasiga muvofiq, qonuniylik, huquq-tartibot, jamoat xavfsizligini ta'minlash, shuningdek jinoyatlarning oldini olish Rossiya Federatsiyasi va subyektlarining birgalikdagi boshqaruvida amalga oshiriladi. Ijroiya hokimiyatiga rahbarlikni amalga oshirish asosida Prezident va hukumat qonuniylik, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, mulkchilik va jamoat tartibini qo'riqlash bo'yicha tashkiliy-boshqaruv chora-tadbirlarini amalga oshiradi, shuningdek jinoiy-huquqiy siyosatning asosiy yo'nalishlari, resurslarini belgilaydi<sup>1</sup>.

Rossiya Federatsiyasi Prezidentining «Rossiya Federatsiyasi ichki ishlar vazirligi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida»gi 1996-yil 18-iyul farmonida ko'rsatilganidek, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, obyektlarni qo'riqlash, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash IIVning eng asosiy vazifasi hisoblanadi<sup>2</sup>. Rossiya Federatsiyasi IIV federatsiya tarkibiga kiruvchi respublikalar IIVlari, o'lkalar, viloyatlar va federal darajadagi shaharlar ichki ishlar bosh boshqarmalari, boshqarmalari va bo'limlari, avtonom viloyatlar va okruglar, tuman va shahar ichki ishlar organlari, temir yo'l, havo va suv transporti tarmoq ichki ishlar organlari, ta'lim muassasalari va ilmiy-

---

<sup>1</sup> Қаранг: Криминология / Под ред. проф. Н. Ф. Кузнецовой, проф. В. В. Лунеева. – М., 2004. – С. 204.

<sup>2</sup> Қаранг: Правовое регулирование деятельности органов внутренних дел: Сб. нормативно-правовых актов. – Т.1 / Отв. ред. В.А. Васильев. – М., 2001. – С. 103–114.

tadqiqot markazlari, ichki qo‘shinlar hamda tizimga kiruvchi boshqa tarkibiy tuzilmalarning faoliyatiga rahbarlik qiladi<sup>1</sup>.

Rossiya Federatsiyasining «Politsiya to‘g‘risida»gi 2011-yil 7-fevral qonunida belgilanganidek, politsiya ijroiya hokimiyati federal organining ichki ishlar sohasidagi yagona markazlashgan tizimi tarkibiy qismi hisoblanib, faoliyatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat: shaxs, jamiyat va davlatni huquqqa xilof tajovuzlardan himoya qilish; jinoyat va ma‘muriy huquqbuzarliklarning oldini olish va fosh etish; jinoyatlarni aniqlash va ochish, jinoyat ishlari bo‘yicha surishtiruvni amalga oshirish; qidiruvni tashkil etish; ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish va ma‘muriy jazolarni ijro etish; jamoat joylarida huquq-tartibotni ta‘minlash; yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash; qurol savdosi sohasidagi Rossiya Federatsiyasi qonunchiligiga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish; xususiy detektivlik va qo‘riqlash faoliyati sohasidagi Rossiya Federatsiyasi qonunchiligiga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish; mulk va obyektlarni qo‘riqlash; jabrlanuvchilar, guvohlar va jinoyatga oid sud ishi yurituvidagi boshqa ishtirokchilar, sudyalar, prokurorlar, tergovchilar va huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlarining boshqa mansabdor shaxslari hamda qo‘riqlanishi talab etiladigan boshqa shaxslarni davlat himoyasi bilan ta‘minlash; ekspert-kriminalistik faoliyatni amalga oshirish<sup>2</sup>.

Politsiya faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish maqsadida, Rossiya Federatsiyasi Ichki ishlar vazirligi tarkibida qirqdan ortiq bosh boshqarma, departament, boshqarma va markazlar tashkil etilgan. Ularning orasida Jamoat tartibini saqlash va Rossiya Federatsiyasi ijro hokimiyati subyektlari bilan hamkorlikni muvofiqlashtirishni ta‘minlash bosh boshqarmasi, Yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash bosh boshqarmasi, Yirik xalqaro va ommaviy sport tadbirlarida jamoat xavfsizligini ta‘minlash boshqarmasi va ular tizimidagi tarkibiy tuzilmalar bevosita jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta‘minlash vazifasini amalga oshirsa, qolgan bosh boshqarma, departament, boshqarma va markazlar o‘ziga yuklatilgan asosiy vazifalarni bajarish asnosida ma‘lum bir vaqt va darajada ushbu faoliyatda ishtirok etadilar<sup>3</sup>.

---

<sup>1</sup> Қаранг: Указ Президента Российской Федерации от 18.07.1996 г. № 1039 «Об утверждении Положения о Министерстве внутренних дел Российской Федерации» / [Электронный ресурс]. — Режим доступа: — URL: <http://kremlin.ru/acts/bank/9733> (дата обращения: 15.06.2015).

<sup>2</sup> Қаранг: Федеральный закон Российской Федерации от 07.02.2011 г. № 3-ФЗ «О полиции» (редакция от 13.07.2015) / [Электронный ресурс]. — Режим доступа: — URL: <http://sudact.ru/law>. (дата обращения: 14.06.2015).

<sup>3</sup> [Электронный ресурс]. — Режим доступа: — URL: <http://mvd.ru/mvd/>

Sobiq Ittifoq parchalanganidan keyin Rossiya Federatsiyasida militsiya, keyin esa politsiyaning faoliyati ikki asosiy yoʻnalishga, yaʼni kriminal va jamoat xavfsizligi militsiyasi (politsiyasi)ga ixtisoslashgan holda tashkil etildi.

Mamlakatda «munitsipal politsiya» va «jamoat xavfsizligi politsiyasi» atamalari bir xil maʼnoga ega boʻlib, ular faoliyatini tashkil etish va tartibga solish maqsadida mamlakatda Rossiya Federatsiyasi Prezidentining «Jamoat xavfsizligi militsiyasi munitsipal organlarini bosqichma-bosqich shakllantirish toʻgʻrisida»gi farmoni qabul qilingan<sup>1</sup>. Politsiya tizimi va funksiyalarining ushbu tartibda boʻlinishi xizmat va boʻlinmalar faoliyatini samarali boshqarish hamda moddiy mablagʻ, kuch va vositalarni tejash imkonini beradi.

Munitsipal politsiya mamlakatda boshlangʻich hududiy boʻgʻin hisoblanib, oʻzida tarmoq tuzilishini aks ettiradi hamda bir tomondan ijroiya va farmoyish beruvchi mahalliy oʻzini oʻzi boshqarish organlari, boshqa tomondan bevosita aholi bilan oʻzaro aloqada boʻladi. Munitsipal politsiya tarkibi, undagi boʻlinmalarni tashkil etish, qayta tashkil etish yoki tugatish, shaxsiy tarkib miqdorini belgilash, moliyalashtirish masalalari federatsiya hukumatining vakolatiga kiradi. Rossiya Federatsiyasi hukumatining 2000-yil 7-dekabrda «Jamoat xavfsizligi militsiyasi boʻlinmalari toʻgʻrisida»gi qaroriga muvofiq, jamoat xavfsizligi militsiyasi (politsiyasi) tarkibiga uchastka inspektorlari, yoʻl harakati xavfsizligi inspeksiyasi, patrul-post va qoʻriqlash xizmati kiradi<sup>2</sup>.

Yevropa mamlakatlari orasida maʼmuriy hududlarda jamoat tartibi va xavfsizligini taʼminlash sohasida yana bir oʻziga xos tizim **Germaniyada** qaror topgan. Germaniya davlat boshqaruvi tizimida politsiya asosiy oʻrinlardan birini egallab<sup>3</sup>, oʻz ichiga Federal IIV va Oʻlkalar<sup>4</sup> IIVlarini qamrab oladi. Oʻlkalar IIVlari Federal IIVning koʻrsatmalarini soʻzsiz bajaradi, Federal IIV esa subʼyektlar vakolatiga kiradigan vazifalarga aralasha

---

structure. (дата обращения: 16.06.2015).

<sup>1</sup> Қаранг: Гранат Н. Л. Место и роль муниципальной милиции в системе органов местного управления // Местное самоуправление: теория и практика. Труды Академии Управления. – М., 1998. – С. 171.

<sup>2</sup> Қаранг: Правовое регулирование деятельности органов внутренних дел: Сб. нормативно-правовых актов. – Т.1 / Отв. ред. В.А. Васильев. – М., 2001. – С. 147–152.

<sup>3</sup> Қаранг: Козырин А.Н. Административное право зарубежных стран: учебное пособие. – М., 1996. – С. 120.

<sup>4</sup> *Изоҳ:* Германия давлат тузилишига кўра федератив республика бўлиб, ўлкалардан ташкил топган.

olmaydi<sup>1</sup>. Mamlakatda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash faoliyatini asosan o'lkalarning politsiyalari amalga oshiradi.

Mamlakatda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash tizimi markazlashmagan bo'lib, o'lkalar huquq-tartibot xizmatlari maxsus tartib bo'yicha davlat organlaridan farqlanadi<sup>2</sup>. O'lkalar politsiyalari tartibni saqlash, kriminal, suvda tartibni saqlash, safarbarlik, konstitutsiyani qo'riqlash kabi politsiya idoralaridan tashkil topgan bo'lib, ular ichida jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash bilan tartibni saqlash politsiyasi shug'ullanadi. Mamlakatning har bir o'lkasida o'z qonunchiligi va idoraviy hujjatlari amal qilsa-da, tartibni saqlash politsiyasining faoliyati hamma o'lkalarda bir xil: huquqbuzarliklarning oldini olish va kriminal politsiya yetib kelguniga qadar kechiktirib bo'lmas tezkor-qidiruv chora-tadbirlarini amalga oshirish; yig'ilish, miting va namoyishlar vaqtida jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash; jamoat joylarida tartibni saqlash, alohida ahamiyatga ega inshootlar va hukumat binolarini qo'riqlash; ko'cha harakatini tartibga solish va yo'l harakati xavfsizligiga rioya etilishini nazorat qilish; ushlanganlarni konvoy qilish va sud muhokamalari vaqtida qo'riqlab turish; yong'in xavfsizligi, sanitariya-epidemiologiya va bozorlarda savdo qilish qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish; pasport tizimini nazorat qilish; umum qabul qilingan o'lchov va og'irlik birliklariga rioya etilishini nazorat qilish; mehmonxona, restoran, bar, kazino, lotereya va totalizatorlarda qoidalarga rioya etilishini nazorat qilish; o'rmonni qo'riqlash; mahalliy fuqaro mudofaasini amalga oshirish; qarovsiz qolgan voyaga yetmaganlar va o'smirlarni nazorat qilish kabilardan iborat.

Germaniyada mahalliy hokimiyat organiga rahbarlik qiluvchi shaxs hududdagi politsiya tashkilotining ham birinchi amaldori hisoblanadi. Binobarin, ayrim o'lkalar politsiyalari butunlay yoki qisman davlatga qarasa, ba'zilar kommunal muassasalar hisoblanadi<sup>3</sup>. Mamlakat jamoat tartibini saqlash politsiyasida 160–165 ming nafar xodim xizmat qiladi<sup>4</sup>.

Yevropa mamlakatlari orasida jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash sohasida yana bir o'ziga xos jihatga ega bo'lgan tizim

---

<sup>1</sup> Қаранг: Антонов И.П. Полиция Германии: История и современность: Учебное пособие / Под ред. Л. М. Алферов. – М., 2000. – С. 65.

<sup>2</sup> Қаранг: Лазерев В. В., Болтенко Ю. Н. Компетенция органов местного самоуправления Германии в сфере правопорядка // Местное самоуправление: теория и практика. Труды Академии Управления. – М., 1998. – С. 215.

<sup>3</sup> Қаранг: Лазерев В. В., Болтенко Ю. Н. Компетенция органов местного самоуправления Германии в сфере правопорядка // Местное самоуправление: теория и практика. Труды Академии Управления. – М., 1998. – С. 217.

<sup>4</sup> Қаранг: Полиция Германии: История и современность. – М. 2000. – С. 80–81.

**Fransiyada** shakllangan. Tarixan Yevropaning boshqa davlatlari singari markazlashmagan va hokimiyatning turli institutlariga bo'ysungan Fransiya politsiyasi bugungi kunda Ichki ishlar vazirligi tizimida birlashgan ikki asosiy markaziy institut – Milliy politsiya va Jandarmeriyadan iborat.

Fransiya Ichki ishlar vazirligi o'z faoliyatini ikki sohada amalga oshiradi. Birinchisi bevosita politsiya faoliyati bo'lsa, ikkinchisining faoliyati ichki ishlar, ijtimoiy va ma'muriy sohalardagi keng ko'lamli turli xil muammolarni hal etishda aks etadi. Shu bois, Ichki ishlar vazirligi Milliy politsiya va Jandarmeriya faoliyatiga rahbarlik qilishi bilan birga, mamlakatda siyosiy partiyalar va birlashmalarni ro'yxatga olish, mahalliy hokimiyat organlari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish, davlatning fuqaro muhofazasini ta'minlash kabi bir qator ijtimoiy-siyosiy vazifalarni ham amalga oshiradi.

Fransiyaning to'liq mahalliy budjet hisobidan ta'minlanadigan munitsipal politsiyasi shaharlar va boshqa aholi turar joylarida jamoat tartibini saqlaydi hamda xavfsizligini ta'minlaydi va bu borada ular Milliy politsiya bilan uzluksiz hamkorlikda faoliyat olib boradilar.

Fransiya Milliy politsiyasiga politsiyaning barcha funksiyalari, jumladan jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash funksiyasi ham yuklatilgan bo'lib, ularni samarali ta'minlash maqsadida, uning tarkibida yigirmaga yaqin bosh boshqarma, boshqarma, markaz, institut va xizmatlar faoliyat olib boradi.

Milliy politsiya tarkibidagi Jamoat xavfsizligi bosh boshqarmasining asosiy vazifasi bevosita jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlashdan iborat. Bosh boshqarmaning faoliyati quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirishga yo'naltirilgan: aholiga yordam ko'rsatish; huquqbuzarliklarning oldini olish; huquqni muhofaza qilish, xususan katta bo'lmagan miqdordagi zarar yetkazilishi bilan bog'liq jinoyatlarni surishtirish va tergov qilish; jamoat tartibini saqlash va qayta tiklash.

Shuningdek, jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish vazifalari o'ziga xos tartibda Milliy politsiyaning chegara hududlari, temir yo'llar va havo transporti hududlarida xizmat olib boruvchi Chegara politsiyasi bosh boshqarmasi, asosiy vazifasi respublika darajasidagi ommaviy tartibsizliklarga qarshi kurash va uni bartaraf etish hisoblangan Respublika xavfsizlik korpusi markaziy xizmati kabi mustaqil tarkibiy tuzilmalari tomonidan ham amalga oshiriladi.

Fransiya IIV Milliy politsiyasi singari Bosh direksiya rahbarlik qiluvchi harbiylashgan Milliy jandarmeriya ham jamoat xavfsizligini, aholining tinchligi va osoyishtaligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Jandarmeriya qishloq hududlarida va mamlakat aholisining yarmini, davlat hududining 90 foizini tashkil etuvchi uncha katta bo'lmagan shaharlarda politsiya vazifasini bajaradi. Mahalliy jandarmeriyalar tuzilishi va amalga oshiradigan vazifalariga ko'ra Milliy politsiyaga juda o'xshashdir.

Fransiya jandarmeriyasi tergov va politsiyaning kundalik boshqa vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan idoraviy jandarmeriya va asosiy vazifasi jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan mobil jandarmeriyaga bo'lingan bo'lsa-da, mamlakatda Dengiz jandarmeriyasi, Havo transporti jandarmeriyasi va Havo jandarmeriyasi ham mavjud.

Osiyoda ma'muriy hududlarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash sohasida o'ziga xos tizimga ega davlatlardan biri – Yaponiya. Mamlakatda politsiya tashkil etilgan 1874-yildan 1947-yilga qadar butun bir markazlashgan tizim shakllangan bo'lsa, urushdan keyin 1954-yilda qabul qilingan «Politsiya haqida»gi qonunga muvofiq, davlat apparatida politsiya kuchlariga rahbarlik va umumiy nazoratni amalga oshirish vazifasi to'g'ridan-to'g'ri Bosh vazirga bo'ysunuvchi Jamoat xavfsizligi davlat komissiyasiga topshirilgan. Joylardagi Jamoat xavfsizligi prefektural komissiyalari esa mahalliy prefektura gubernatoriga bo'ysunadi<sup>1</sup>. Qonunga muvofiq, jamoat xavfsizligi davlat komissiyasi o'z funksiyalarini amalda politsiya bosh boshqarmasiga ko'rsatmalar berish orqali bajaradi.

Yaponiya politsiyasining tashkiliy tuzilishi va faoliyatida muayyan markazlashganlik mavjud bo'lib, Tokio politsiya boshqarmasi va boshqa prefektural shtablar ustidan tegishli jamoat xavfsizligi komissiyalari bilan birga, politsiya bosh boshqarmasi va mahalliy politsiya boshqarmalarining boshliqlari rahbarlik va nazoratni amalga oshiradilar.

**Amerika Qo'shma Shtatlari** – ma'muriy hududlarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha dunyoda o'ziga xos tizim va ilg'or tajribaga ega bo'lgan davlat. AQShda 40 mingdan ortiq politsiya idora-agentliklari mavjud bo'lib, mamlakatda ularning boshqarilishini muvofiq-lashtirib boruvchi markaziy politsiya idorasi mavjud emas. Mazkur politsiya idoralarining ko'pchiligi uch mingdan ortiq graflikda joylashgan sheriflik idoralaridir<sup>2</sup>. AQShda 18789 ta mahalliy politsiya uchastkalari mavjud bo'lib, ularning 13578 tasi umumiy tartibdagi mahalliy politsiya bo'linma-

---

<sup>1</sup> Қаранг: Уэда К. Преступность и криминология в современной Японии / Пер. с яп. – М., 1989. – С. 151–152.

<sup>2</sup> Қаранг: Кваша Л. Ф. Особенности правового статуса шерифа и его значение для правового регулирования деятельности местной милиции // Местное самоуправление: теория и практика. – М., 1998. – С. 197.

lari, 3088 tasi sheriflar idoralari, 49 tasi shtatlar bo‘linmalari, qolganlari esa mahalliy va shtatlar maxsus yurisdiksiya bo‘linmalari (port politsiyalari, transport politsiyasi va boshqalar) hisoblanadi. Mamlakatda to‘liq ish kunida ishlaydigan, qasamyod qabul qilgan polisiyachilar soni har 1000 nafar aholiga 2,4 nafar, katta shaharlarda esa 2,3 nafardan to‘g‘ri keladi<sup>1</sup>.

**Xorijiy davlatlar jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash tizimi-da tayanch punktlarining tutgan o‘rni.** O‘zbekistondagi militsiya tayanch punktlariga o‘xshash tuzilmalar Rossiyada «tartibni saqlash tayanch punktlari» deb nomlanib, ularning maqsadi jamoatchilik asosida faoliyat ko‘rsatuvchi tashkilotlarning faolligini oshirish hamda davlat organlari bilan hamkorligini yaxshilashdan iborat<sup>2</sup>. Tartibni saqlash tayanch punktlari jamoatchilik organi hisoblanib, unga kiruvchi jamoatchilik tuzilmalarining kelishilgan holda faoliyat ko‘rsatishi Kengashlar tomonidan ta‘minlanadi<sup>3</sup>. Rossiya Federatsiyasida ichki ishlar organlari tizimi militsiyadan politsiyaga o‘zgartirilgandan keyin mamlakatda tartibni saqlash tayanch punktlari «politsiya uchastka punktlari» sifatida nomlana boshladi.

Politsiya uchastka noziri – politsiya uchastka punktlarining asosiy subyektlaridan biri bo‘lib, ularning faoliyati Federatsiya IIVning 2012-yil 31-dekabrda buyrug‘i bilan tasdiqlangan «Politsiya uchastka nozirlarining faoliyatini tashkil etish masalalari»ga doir buyruq<sup>4</sup> asosida tashkil etiladi. Normativ-huquqiy hujjatlarda politsiya uchastka nozirlarining asosiy xizmat vaqti ma‘muriy hududda o‘tishi belgilangan bo‘lib, ular jamoat birlashmalari bilan hamkorlikda tadbirlar olib borish zarurati tug‘ilganida politsiya uchastka punktlarida faoliyat ko‘rsatadilar<sup>5</sup>. O‘tkazilgan sotsiologik so‘rov natijalaridan ma‘lum bo‘lishicha, mamlakat aholisining 70 foizi hududiy yaqinligi va tezkor harakat qilish imkoniyatini inobatga olib, politsiya uchastka nozirlariga murojaat etishni ma‘qul ko‘radilar<sup>6</sup>.

---

<sup>1</sup> Қаранг: Криминология / Под ред. Дж.Ф. Шели / Пер. с англ. – СПб., 2003. – С. 466–470.

<sup>2</sup> Қаранг: Административная деятельность ОВД. – М., 2006. – С. 17–18.

<sup>3</sup> Қаранг: Административная деятельность органов внутренних дел. Часть особенная. / Под ред. д-ра юрид. наук, проф. А.П. Коренева. – М., 1999. – С. 70.

<sup>4</sup> Қаранг: Приказ МВД России от 31.12.2012 № 1166 «Вопросы организации деятельности участковых уполномоченных полиции» / [Электронный ресурс]. – Режим доступа: – URL: <http://www.rg.ru/uchastkovie-dok.html>. (дата обращения: 14.06.2015).

<sup>5</sup> Қаранг: Правовое регулирование деятельности органов внутренних дел: Сб. нормативно-правовых актов. – Т.1 / Отв. ред. В.А. Васильев. – М., 2001. – С. 315.

<sup>6</sup> Қаранг: Мышляев Д. Н. О роли участковых инспекторов милиции в предупреждении административных деликтов, посягающих на общественный порядок // Проблемы деятельности служб общественной безопасности на современном этапе. – М., 2000. – С. 100.



«Politsiya to'g'risida»gi qonunning 7-moddasiga ko'ra, politsiya uchastka nozirlarini ma'muriy hududda xizmat olib borishga mo'ljallangan bino bilan ta'minlash, mazkur binoni mebel, tegishli texnika va aloqa vositalari bilan ta'minlash, texnik jihatdan ekspluatatsiya qilish federal budjet mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi<sup>1</sup>. Rossiya Federatsiyasida politsiya uchastka nozirlarini lavozimga tayinlash va undan ozod etish tuman, shahar ichki ishlar organi boshlig'i tomonidan mahalliy o'zini o'zi boshqarish organining roziligi bilan amalga oshiriladi<sup>2</sup>. Normativ-huquqiy hujjatlarda politsiya uchastka nozirlariga, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olishdan tashqari, yana bir qator vazifalar yuklatilgan<sup>3</sup>.

Shuningdek, Rossiya Federatsiyasining bir qator hududiy ichki ishlar organlari tizimida politsiya uchastka nozirining yordamchisi lavozimi mavjud bo'lib, ushbu lavozimga qabul qilingan har bir xodim tuman, shahar ichki ishlar organi boshlig'ining buyrug'i bilan muayyan politsiya uchastka noziriga birlashtiriladi hamda uning rahbarligida xizmat qiladi. Politsiya uchastka nozirining jinoyat va huquqbuzarlik ishlari yuzasidan mustaqil protsessual qaror qabul qilishdan tashqari barcha huquq va majburiyatlaridan uning yordamchisi ham foydalanishiga ruxsat etiladi<sup>4</sup>.

Ma'muriy hududlarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashda patrul-post xizmati xodimlarining o'zni katta. Ular xizmat hududida patrullik qilish asosida jinoyat sodir bo'lishi mumkin bo'lgan joylarni, yashiringan jinoyatchilarni aniqlaydilar, shaxslarning jamiyatga zid xulq-atvoriga ergashmasligini ta'minlaydilar, sodir bo'lgan g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga nisbatan tezda tegishli choralar ko'radilar yoki bu haqda navbatchilik qismi, kriminal militsiya va boshqa xizmatlarni xabardor qiladilar<sup>5</sup>.

Germaniya politsiyasining aholi turar joylarida jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash bilan shug'ullanuvchi eng quyi tuzilmalari ham tartibni

---

<sup>1</sup> Қаранг: Федеральный закон Российской Федерации от 07.02.2011 г. № 3-ФЗ «О полиции» (редакция от 13.07.2015) / [Электронный ресурс]. – Режим доступа: – URL: <http://sudact.ru/law>. (дата обращения: 14.06.2015).

<sup>2</sup> Қаранг: Организация деятельности участковых уполномоченных милиции: учебное пособие. – Екатеринбург, 2002. – С. 7.

<sup>3</sup> Қаранг: Правовое регулирование деятельности органов внутренних дел: Сб. нормативно-правовых актов. – Т.1 / Отв. ред. В.А. Васильев. – М., 2001. – С. 314–325.

<sup>4</sup> Қаранг: Участковый уполномоченный полиции // [Электронный ресурс]. – Режим доступа: – URL: [http:// ru.wikipedia.org/wiki](http://ru.wikipedia.org/wiki). (дата обращения: 17.06.2015).

<sup>5</sup>Қаранг: *Алексеев А. И.* Криминология. – М., 2000. – С. 138.

saqlash punktlari hisoblanadi. Ular turli joylarda turlicha: «Bosh politsiya vaxtalari», «Politsiya vaxtalari», «Polisiya stansiyalari», «Politsiya postlari», «Politsiya inspeksiyalari» kabi nomlanishi mumkin. Ushbu tuzilmalar ham, militsiya tayanch punktlari singari, kechayu kunduz faoliyat ko'rsatadi.

Yaponiyada aholi turar joylarida jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash politsiyaning quyi bo'g'inlari – politsiya post va punktlari tomonidan amalga oshiriladi. Mamlakatda politsiya faoliyatini takomillashtirib borishning ustuvor yo'nalishlaridan biri ularning jamoatchilik bilan hamkorligini kuchaytirib borishdan iboratligini yaxshi tushungan Yaponiya hukumati politsiya faoliyatining dastlabki davrlaridan aholi turar joylarida politsiya post va punktlarining faoliyatini yo'lga qo'yishga alohida e'tibor qaratgan. Natijada 1982-yilning boshidayoq mamlakatda 9446 ta politsiya posti va 6053 ta politsiya punkti aholiga xizmat ko'rsata boshlagan. Umuman olganda, ushbu post va punktlar Yaponiya politsiyasining o'zagi bo'lib, ularda politsiya xodimlarining 40 % xizmat qiladi<sup>1</sup>. Politsiya postlari qishloqlarda joylashgan bo'lib, ularda bitta politsiya xodimi ishlaydi va o'z oilasi bilan istiqomat qiladi. Politsiya punktlari esa asosan shaharlarda joylashgan bo'lib, xodim uchun faqat xizmat xonasi vazifasini bajaradi.

Tadqiqot jarayonida o'tkazgan ijtimoiy so'rovimizda ichki ishlar organlari xodimlaridan «Yaponiyadagi singari har bir militsiya tayanch punktida profilaktika inspektorining oilasi bilan hayot kechirib faoliyat olib borishiga qanday qaraysiz?», deb so'ralganida, ularning 33,0 % «bu profilaktika inspektori mas'uliyatining, hudud uchun javobgarlik hissining oshishiga olib keladi» va 11,9 % «bu militsiya tayanch punkti faoliyatining samaradorligiga salbiy ta'sir qiladi», degan javoblarni berishgan bo'lsa, 10,1 % ushbu holat vaziyatni o'zgartirmasligini, 45,0 % buni tasavvur qila olmasligini bildirishgan.

Yaponiyada politsiya post va punktlarida xizmat olib boruvchi patrul-post xizmati xodimlari o'zlariga birlashtirilgan hududlarda har bir oila, korxonalar, muassasa va tashkilot bilan ish olib borgan holda doimiy ravishda patrullik qiladilar. Mamlakat qonunlarida har bir politsiya xodimiga o'rtacha 400 ta oila to'g'ri kelishi lozimligi nazarda tutilgan. Xizmat davomida patrul-post xizmati xodimlari aholi o'rtasida huquqbuzarliklar, shu jumladan jinoyatlarning oldini olish bo'yicha suhbatlar o'tkazib, ularni kerakli axborotlar bilan ta'minlaydilar, shuningdek jamoatchilikning politsiya faoliyatiga doir fikrini o'rganib boradilar.

---

<sup>1</sup> Қаранг: Уэда К. Преступность и криминология в современной Японии / Пер. с яп. – М., 1989. – С. 154.

Hozirgi kunda ko‘plab xorijiy mamlakatlarda ma‘muriy hududlarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash sohasida munisipal ichki ishlar organlari, ularda ishlovchi xodimlarning huquqiy maqomi keng muhokama qilinmoqda, jumladan huquqni muhofaza qilish funksiyalarining bo‘linmasligi mahalliy doiradagi masalalarni mustaqil hal qilishda o‘zini o‘zi boshqarish huquqini cheklab qo‘yayotgani bois jamoat tartibini saqlash vakolatlarini bevosita munitsipal tuzilmalarga berish taklif qilinmoqda<sup>1</sup>. Shunday tartib AQSh sheriflik xizmatlarida o‘z aksini topgan.

AQShda ma‘muriy hududlarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash vazifasi asosan sheriflar zimmasiga yuklatilgan. Sherif (ingl. «sheriff») Buyuk Britaniya va AQShda o‘z okrugida polisiyaning muayyan ma‘muriy funksiyalarni bajaruvchi mansabdor shaxsi<sup>2</sup> bo‘lib, dastlabki davrlarda sheriflardan grafliklarda qirol manfaatlari yo‘lida foydalanilgan. Hozirgi kunda ular ma‘muriy hududlarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurash va jazolarini ijro etish bo‘yicha politsiyaning keng vakolatlar doirasiga ega ishonchli vakilidir<sup>3</sup>. Sherif ma‘muriy hududlarda jamoat tartibining holati bo‘yicha to‘liq javobgar bo‘lib, xizmat hududida bu borada birmuncha mustaqil va keng huquqlarga ega, shuningdek huquqni qo‘llashda deyarli barcha hokimiyat vakolatlaridan foydalanadi, faoliyati mahalliy budjet hisobidan moliyalashtiriladi<sup>4</sup>.

Sheriflik xizmatlarining AQSh huquqni muhofaza qilish idoralari tizimidagi o‘rni shunchalik kattaki, ularning qonuniylikni ta‘minlashi – ayrim shtatlarda Konstitutsiyani ta‘minlashga tenglashtirilgan, ayrim Konstitutsiyalarda sheriflarning majburiyatlari aniq belgilab berilgan.

AQSh politsiyasida sheriflar turli shtatlarda turlicha tartibda 4–6 yil muddatga tayinlanadilar. Jumladan, Rod Aylend, Gavayi ma‘muriy hududlarida ular shaxsan gubernator tomonidan tayinlanadi. Kaliforniyada bu lavozimga huquqni muhofaza qilish tizimida to‘rt yillik ish stajiga ega bo‘lgan xodimlar tayinlansa, Aydaxo, Missisipi, Oklaxoma, Kanzas shtatlarida sheriflikka nomzod bo‘lgan shaxslar maxsus o‘quv kursini o‘tashi

---

<sup>1</sup> Қаранг: *Тоболин В. В.* Право муниципального управления. – М., 1997. – С. 136.

<sup>2</sup> Қаранг: *Большой юридический словарь.* Т. VI. – М., 1997. – С. 766.

<sup>3</sup> Қаранг: *Кваша Л. Ф.* Особенности правового статуса шерифа и его значение для правового регулирования деятельности местной милиции // *Местное самоуправление: теория и практика. Труды Академии Управления.* – М., 1998. – С. 198.

<sup>4</sup> Қаранг: *Собиров М.С., Норов В.И.* Поездка в Америку: отчет, впечатления, опыт. – Т., 1991. – С. 6.

shartligi belgilangan<sup>1</sup>. Davlatning ayrim ma'muriy hududlari, xususan Ayova-Sitida sherifga xizmat faoliyatini olib borishda o'zining yordamchilari va boshqa mas'ul xodimlarni bevosita lavozimga tayinlash va ozod qilish vakolati berilgan.

Umuman olganda, sherif ko'plab okruglarda «tinchlikni saqlovchi», ayni vaqtda, «okrugdagi asosiy rasmiy shaxs» ham hisoblanadi. Sherifga ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etishda va hibsga olishda okrugdagi barcha erkak fuqarolarning ko'magidan foydalanish, jinoyatlarni surishtirish, patrullik qilish, yo'l harakati xavfsizligini nazorat qilish kabi vakolatlardan bilan bir qatorda, munitsipal turmalarning ahvoli uchun javobgarlik ham yuklatilgan. Bu esa sherif vakolatlari doirasining qanchalik kengligini yaqqol ko'rsatadi.

Mamlakatda aholi turar joylarida jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash tizimida patrul-post xizmati xodimlarining o'rni va ahamiyatini o'rgangan amerikalik mutaxassislar ushbu xizmatni «politsiyaning yuragi, yadrosi» sifatida e'tirof etishadi<sup>2</sup>. AQShda markazlashmagan politsiya tizimi qaror topgani bois mamlakatda patrul-post xizmatlari faoliyatini tashkil qilish shakllarida bir xillik mavjud emas<sup>3</sup>.

**Ma'muriy hududlarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashda jamoatchilikning ishtiroki.** Rossiyada militsiyaga ko'maklashuvchi jamoatchilik tuzilmalarini to'rt guruhga ajratish mumkin:

– jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash sohasida bevosita huquqni muhofaza qilish funksiyasini bajaruvchi jamoatchilik tuzilmalari – tartibni saqlash tayanch punktlari, ko'ngilli xalq drujinachilari, kazaklar jamiyati;

– korxonalar, muassasa va tashkilotlarning mehnat jamoalari negizida tashkil etilgan jamoatchilik tuzilmalari – komissiyalar, seksiyalar, kengashlar, markazlar;

– yashash joylarida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi tarzida jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashga ko'maklashish uchun tuzilgan jamoatchilik tuzilmalari – mavzalar qo'mitalari, ota-onalar qo'mitalari, jamoatchi tarbiyachilar;

---

<sup>1</sup> Қаранг: *Кваши Л. Ф.* Особенности правового статуса шерифа и его значение для правового регулирования деятельности местной милиции // Местное самоуправление: теория и практика. Труды Академии Управления. – М., 1998. – С. 199.

<sup>2</sup> Қаранг: *Hale A. D.* Police patrol. – New York. 1981. – P. 2; *Осипов Ю. И.* Организация патрульно-постовой службы местной полиции США. – М., 1990. – С. 8.

<sup>3</sup> Қаранг: *Осипов Ю. И.* Организация патрульно-постовой службы местной полиции США. – М., 1990. – С. 15.

– muayyan masalalarni ko‘rib chiqish va qaror qabul qilish vakolatiga ega bo‘lgan jamoatchilik yurisdiksiyaviy organlari – ma‘muriy komissiyalar, voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyalar<sup>1</sup>.

Ko‘ngilli xalq drujinachilari Rossiyada tarixan shakllangan jamoatchilik tuzilmasi bo‘lib, mamlakat qonunchiligida ularning huquq-tartibotni ta‘minlash bo‘yicha faoliyatini yangicha sharoitda tashkil etishning huquqiy asoslari yaratilgan. Hozirda Moskva shahrida jamoat tartibini saqlashda drujinachilarning o‘z o‘rni mavjud bo‘lib<sup>2</sup>, ularning faoliyati shtablar tomonidan muvofiqlashtirib boriladi<sup>3</sup>.

Rossiya Federatsiyasining ayrim hududlarida jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash sohasida militsiyaga yordam beruvchi, faoliyati huquqiy ta‘minlangan<sup>4</sup> yana bir o‘ziga xos tuzilma kazaklar jamiyatidir. Hozirgi kunda mamlakatning birgina Krasnodar o‘lkasida 300 ga yaqin kazaklar jamiyatiga birlashgan 5000 dan ortiq ko‘ngillilar jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashda militsiyaga yordam ko‘rsatmoqda<sup>5</sup>.

Yaponiya politsiyasi ham jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlashda jamoatchilik bilan hamkorlik qilish borasida keng ko‘lamli tajribaga ega bo‘lib<sup>6</sup>, rehabilitatsion himoya markazlari, «Akalar va opalar», «Ota-onalar va o‘qituvchilar» jamiyatlari hamda o‘zini o‘zi boshqarish (mavzelar) qo‘mitalari bu boradagi hamkorlikning teng huquqli subyektlaridir.

Mamlakatda huquq-tartibotni ta‘minlash, voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining oldini olishda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan «Akalar va opalar» jamiyati ilk marta 1947-yilda Kioto shahrida talabalar tomonidan tashkil

---

<sup>1</sup> Қаранг: *Попова Н.Ф., Овчинникова Л.И.* К вопросу привлечения общественных объединений к охране общественного порядка // Российский следователь. – 2006. – № 10. – С. 39–40.

<sup>2</sup> Криминология / Под ред. проф. Н.Ф. Кузнецовой, проф. В.В. Лунеева. – М., 2004. – С. 218.

<sup>3</sup> Қаранг: Постановление Правительства Москвы от 30 декабря 2003 года «Об утверждении Инструкции о Штабе народных дружинников города Москвы» // Вестник Мэра и Правительства Москвы. – 2002. – № 31.

<sup>4</sup> Қаранг: Положение о привлечении казачьих обществ к государственной и иной службе, утв. Указом Президента РФ от 16 апреля 1996 г. № 563 // Собрание законодательств РФ. 1996. № 17. – С. 1954.

<sup>5</sup> Қаранг: *Нечевин Д.К., Сапрунов А.Г.* Организация обеспечения правопорядка казачьими обществами и пути их совершенствования // Уголовная политика и проблемы безопасности государства. – М., 1998. – С. 212.

<sup>6</sup> Қаранг: Nishimura K. On the Nagasaki Beat: the Art of Community Policing (Look Japan. 1997, March).

etilgan. Hozirgi kunda mazkur jamiyat Yaponiyaning barcha hududidagi yuzlab mahalliy jamoalarda minglab a'zolar ishtirokida harakat qiladi<sup>1</sup>.

Jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olishda politsiyaga ko'maklashuvchi «Ota-onalar va o'qituvchilar» jamiyati bugungi kunda har bir maktabda o'z o'rniga ega. Ushbu jamiyatning butun davlat miqyosidagi faoliyati Ota-onalar va o'qituvchilar jamiyati umumiyapon kengashi tomonidan muvofiqlashtirib boriladi.

O'zini o'zi boshqarish qo'mitalari Yaponiyada Ikkinchi jahon urushi yillarida, IIVning ko'rsatmasiga muvofiq, ichki ishlar organlarining funksiyalarini bajaruvchi quyi bo'g'in sifatida faoliyat ko'rsatib kelgan bo'lsa, 1952-yilga kelib ular qonunga muvofiq o'z vazifalarini bajaradigan bo'ldilar. Politsiyaning ushbu qo'mitalar bilan o'zaro hamkorligi ham katta ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, Yaponiyada butun mamlakat hududi bo'yicha tarqalgan va tarkibiga fuqarolarning ixtiyoriy uyushmalari a'zolarini jamlagan «Politsiya bilan aloqa punktlari» faoliyat olib boradi. Har biri 50 ga yaqin oilani qamrab olgan bunday punktlar soni Yaponiyada taxminan 700 000 ta<sup>2</sup>.

AQShda aholi turar joylarida jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashda politsiyaning jamoatchilik bilan hamkorligi yuzasidan keyingi 12–15 yilda «kompyunti polising», ya'ni «jamoat politsiya xizmati» prinsipiga asoslangan konsepsiya faol amal qilmoqda. Unga ko'ra politsiyaning asosiy e'tibori mikrotumanlarga qaratilib, bir tomondan fuqarolarning turmush tarzini o'zgartirishga yordam beriladi, ikkinchi tomondan har bir fuqaroning jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash, jinoyatlarning oldini olishga hissasini qo'shishi mumkinligi haqida tushuntirish ishlari olib boriladi. Natijada politsiya bilan fuqarolar o'rtasidagi o'zaro ishonchga asoslangan munosabatlar samara bera boshladi. Jamoatchilik, xususan fuqarolarning huquq-tartibotni ta'minlashdagi faol ishtirokini rag'batlantirishda politsiya tomonidan bejirim, e'tiborni tortuvchi kiyimlar berish, mehnatlarini turli yo'llar bilan taqdirlash, bepul kechalar uyushtirish, pul mukofoti berish, ommaviy axborot vositalarida chiqishlar qilish, davlatning oliy mansabdor shaxslari tomonidan tashakkur e'lon qilish kabi turli usullar qo'llaniladi<sup>3</sup>.

---

<sup>1</sup> Қаранг: *Уэда К.* Преступность и криминология в современной Японии / Пер. с яп. – М., 1989. – С. 161.

<sup>2</sup> Қаранг: *Бухаров Д. З.* Жиноятчиликнинг олдини олишда жамоатчилик иштироки: жаҳон тажрибаси // Миллий кадриятлар ва шахс ижтимоий ҳимоясининг ҳуқуқий механизмларини такомиллаштириш: Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Т., 2007. – Б. 259.

<sup>3</sup> Қаранг: *Иншаков С.М.* Зарубежная криминология. – М., 1997. – С. 47.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashda politsiyaning jamoatchilik bilan muntazam hamkorligini ta'minlash orqali, birinchidan, mahalliy darajada jamoat tartibi va xavfsizligini samarali ta'minlashga, ikkinchidan, hududda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash uchun nafaqat politsiya, balki jamoatchilikning ham mas'ul ekanligini tushunib yetishga erishiladi.

Aholi turar joylarida jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashning shakl va usullari. Xorijiy davlatlar ichki ishlar organlari jamoat tartibi va xavfsizligini saqlashda bir qator usullardan foydalanadilar. Patrullik qilish bu boradagi asosiy usullardan biri bo'lib, ichki ishlar organlari xodimining ayrim mahalliy yashovchilar bilan to'satdan uchrashib qolishi emas, balki ma'muriy hududdagi jamiyatning barcha bo'g'inlari bilan faol aloqada bo'lish, namunali o'zaro munosabat o'rnatish va maslahatlar berish haqida amaliy kelishuvlar tuzishga qaratilgan rejali tadbirlarni nazarda tutadi<sup>1</sup>. Ko'plab davlatlar ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibining 60–75 foizini patrullik xizmatlari tashkil etishi ham faoliyatning ushbu turiga bo'lgan katta e'tibordan dalolatdir.

Patrullik qilish hudud va jinoyatchilikning intensivligi darajasini inobatga olgan holda oshkora va nooshkora yo'llar bilan huquq-tartibotga qarshi tayyorlanayotgan huquqbuzarliklarni aniqlash, ularning oldini olishga qaratilgan tezkor, maqsadga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, jinoyatchiga qarshi jamiyat himoyasining birinchi chizig'idir<sup>2</sup>. Patrullik naryadlari xizmat faoliyati mobaynida huquqbuzarliklarning oldini oladilar, yo'l harakatini tartibga soladilar va nazorat qiladilar, yashiringan jinoyatchilarni qidirib topishda ishtirok etadilar, boshqa tarmoq xizmatlari uchun kerakli ma'lumotlarni to'playdilar hamda turli favqulodda vaziyatlarda fuqarolarga yordam ko'rsatadilar.

Rivojlangan mamlakatlar politsiyasining patrullik xizmatlariga zamonaviy texnik ta'minot xos bo'lib, bu naryadlarning yuqori safarbarligiga erishish imkonini beradi. Masalan, Vashingtonda jinoyat haqida xabar tushgach, patrul bo'linmasi dispetcherlik punktidan o'rtacha 2,5–3 minut ichida voqeya joyiga yetib borishga qodir. Patrul naryadlari axborot ta'minotiga ham katta e'tibor qaratilgan. Ular aloqa vositalari va kompyuter texnikasi bilan yaxshi qurollangani bois kerakli ma'lumotni tezda axborot markazining ma'lumotlar bazasidan olish imkoniyati mavjud.

---

<sup>1</sup> Қаранг: Работа полиции в обществе: Пособие для преподавателей / Ин-т. «Открытое общество». – М. 2001. – С. 48.

<sup>2</sup> Қаранг: Губанов А. В. Полиция зарубежных стран. Организационно-правовые основы, стратегия и тактика деятельности. – М., 1999. – С. 95.

Keyingi yillarda rivojlangan mamlakatlarda politsiyaning jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash faoliyatini yengillashtirish maqsadida katta ko'chalar va posyolkalarda videokuzatuv uskunalari o'rnatila boshlandi. XXI asrning boshlarida bu borada Buyuk Britaniyada katta e'tibor London shahriga qaratilgan edi. 1999-yilda Qirollik IIV poytaxtning birgina ko'cha jinoyatchiligi nisbatan ko'p sodir etiladigan sharqiy markaziy tumaniga 144 ta kuzatuv kamerasi o'rnatgan<sup>1</sup>. Mazkur kameralarda olingan huquqbuzarlik yoki jinoyatga oid suratlar orqali ish olib borish politsiyaga katta qulaylik yaratadi.

Xorijiy davlatlarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashda keng qo'llaniladigan usullardan yana biri – «*muammoni hal qilish*» bo'lib, u politsiya tomonidan qo'llaniladigan zamonaviy usullarni o'z ichiga olgan yangi ish usuli hisoblanadi<sup>2</sup>. E'tibor bersak, politsiyaning an'anaviy ish usuli huquqbuzar yoki jinoyatchining shaxsini aniqlash va ularni jazolashga qaratilgan. Biroq, ishga bunday yondashish hamma vaqt ham kutilgan natijani beravermaydi. Muammoni hal qilishda politsiya jamiyatda huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etilishiga olib keladigan muammo va sabablarni o'rganadi hamda ularni bartaraf qilish choralari ko'radi. Qolaversa, mazkur usul jinoyatga moyil shaxslarning jinoiy yo'lni tanlashiga sabab bo'ladigan, hayotidagi mavjud muammolarini aniqlash hamda bartaraf etishni nazarda tutadi<sup>3</sup> va keng jamoatchilik yordamiga tayanadi.

Bugungi kunda muammoni hal qilish usulining jamiyatdagi o'rnini muntazam ravishda o'rganib borish maqsadida Yevropa davlatlarining ko'pchiligida «SARA», «Muammoni tahlil qilish moduli», «Muammoni hal qilish uchburchagi» deb nomlangan turli modellardan foydalaniladi. Bu modellar muammoni hal qilishning turli bosqichlarida uni samarali amalga oshirishga sharoit yaratadi hamda mazkur usulning fuqarolarga bergan nafini baholash imkonini beradi<sup>4</sup>.

Yuqoridagi ilmiy tahlillar ichki ishlar organlarini boshqarishning politsiya tizimi qaror topgan mamlakatlarda ham ma'muriy hududlarda

---

<sup>1</sup> Қаранг: Губанов А. В. Полиция зарубежных стран. Организационно-правовые основы, стратегия и тактика деятельности. – М., 1999. – С. 96.

<sup>2</sup> Қаранг: Работа полиции в обществе: Пособие для преподавателей/ Ин-т. «Открытое общества». – М. 2001. – С. 12.

<sup>3</sup> Мухторов Ж. С. Муаммони ҳал этиш – жиноятларнинг олдини олишдаги янги усул // Ҳозирги замон ҳуқуқшунослик илмини эгаллаш йўлида: Илмий мақолалар тўплами. – Т., 2004. – Б. 204–208.

<sup>4</sup> Қаранг: Наилучшая практика построения партнерства между полицией и обществом / Составлено старшим советником Генерального секретаря ОБСЕ по вопросам полицейской деятельности. – Вена, 2008. – С. 29–30.



jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashda tayanch punktlari o'ziga xos o'ringa ega ekanligini yaqqol ko'rsatdi. Respublikamiz IIV tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarda bir qator olimlar va mutaxassislar xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalardan kelib chiqib, mamlakatimiz ichki ishlar organlarining tuzilishini qayta ko'rib chiqish va politsiya tizimiga o'tish maqsadga muvofiqligini ta'kidlashadi<sup>1</sup>. Xorijiy davlatlar ma'muriy hududlarida jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash tajribasini ilmiy tahlil qilib, shunday xulosaga kelish mumkinki, mamlakatimiz ichki ishlar organlari tizimida bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlar istiqbolda O'zbekistonda politsiya tizimining joriy etilishiga olib kelganda ham ushbu tizimda tayanch punktlari jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurash hamda aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishning markaziy subyekti bo'lib qolaveradi.

---

<sup>1</sup> Қаранг: *Таджиханов У. Ҳукукий ислохотлар: муаммолар ва истикболлар* // Ҳуқуқ–Право–Law. – 2000. – № 1. – Б. 17; *Милиция қандай ислохотга муҳтож* // Ҳуқуқ–Право–Law. – 2004. – № 1. – Б. 9.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>1-§. O‘zbekistonda aholi turar joylarida jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash tizimlarining tarixi .....</b>	<b>6</b>
<b>2-§. Militsiya tayanch punktlari – O‘zbekistonda aholi turar joylarida jamoat tartibini saqlash tizimining markaziy subyekt.....</b>	<b>17</b>
<b>3-§. Ma‘muriy hududlarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha xorij tajribasi .....</b>	<b>42</b>

Muzaffar Ziyodullayevich ZIYODULLAYEV,  
yuridik fanlar nomzodi, dotsent

AHOLI TURAR JOYLARIDA  
JAMOAT TARTIBINI SAQLASH TIZIMLARI:  
TARIXI, BUGUNI VA XORIJ TAJRIBASI

*O'QUV QO'LLANMA*

*Muharrir B. A. Yarov*  
*Texnik muharrir D. R. Djalilov*

---

Bosishga ruxsat etildi 18 . 12.2015. Nashriyot-hisob tabag'i 3,5  
Adadi 20 nusxa. Buyurtma № Bahosi shartnoma asosida.

---

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,  
100197, Toshkent sh., Intizor ko'chasi, 68